

جديد

Tilda, fikrda, ishda birlik!

2025-yil 1-yanvar
№ 1(53)
www.jadid-media.uz

Jadid 2025 -
adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Atrof-muhitni asrash
va "yashil" iqtisodiyot yili

BUGUNNING SHE'RI

UMR SOATLARI

"Chiq-chiq" deydi soat "11"ga imo qilib mo'ylovi bilan, to'n bichadi har kim umrga o'z qarichi – o'ylovi bilan. Osmon esa yum-yumaloq vaqt, har soati uning – bir muchal – davra qurib, yillar betoqat ajdar, asov ot bo'lib uchar. Uzun tashlab qo'yadi birday vaqt arqonni. Kimga baxt kular – osmonlardan muloyim qorday yog'adi oq-oppoq orzular; kimga esa aksi omadning, tun qop-qora tomchi tuyilar, har lahzasi garchi hayotning oltin yombi bo'lib quyilar. Umr otlig' bu kalavani chuvalatib, men-ku qand yeyman, ko'ksimdag'i ot aravani quruq olib qochmasa, deyman. Ko'z yonadi. Yurak qalqinan... Mayli, mening yukim bo'lsin zil, baxt keltirsin faqat xalqimga eshik qoqib turgan Yangi yil.

Shuhrat AZIZOV



Muhtaram vatandoshlar!
Siz, azizlarni, ko'pmillati
O'zbekiston xalqini yangi – 2025-yil
bilan chin qalbimdan muborakbos etaman.

Jahondagi murakkab vaziyatga qaramasdan, o'tayotgan yil mammakatimiz uchun qutli va barakali bo'ldi. Buning uchun har qancha shukrona aytasak, arziyi.

Mehnatkash xalqimizning fidokorona mehnati, siyosiy-jitmoi yafolligi bilan Yangi O'zbekiston g'oyasi real voqelikka aylanmoqda.

Oly Majlis va mahalliy kengashlarga bo'lib o'tgan saylovlar demokratik islohotlarning yangi

davriga qadam qo'yganimizni yana bir marta tasdiqladi.

Yurtimizda yuqori texnologiyali yangi sanoat majmualari, infrafertilma va logistika tarmoqlari, avtomobil va temir yo'llar barpo etildi. Biznes, IT va turizm sohalari izchil rivojlanmoqda. Aholi daromadlari va turmush sifati oshmoqda.

Mirishkor dehqon va fermerlarimiz, klasterlarimiz ishchi-xizmatchilari mardonra mehnat qilib, mo'l hosil yetishtiqdilar.

Yangi uy-joylar, bog'cha va mabtobalar, olyigohlar, madaniyat va sport maskanlari qad ko'tarmoqda. Yurtimiz tobora obod qiyofa kasb

etmoqda. Minglab yurdoshlarimiz Yangi yilni yangi uylarda kutib olmoqda.

Bilimi va shijoatlari, navqiron yoshlarimiz ulkan yutuqlarini qo'lg'a kiritmoqda. Ayniqsa, Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida erishilgan rekord natijalari milliy sportimiz tarixida yangi sahifa ochdi.

Fugarolik jamiyatni institutlari, xususan, mahallaning roli va ta'siri kuchaymoqda. Ma'naviy yuksuratlar jarayonlari hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanmoqda.

Global ahamiyatga ega tashabbuslarimiz jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab-quv-

vatanmoqda. Xalqaro maydonda O'zbekistonning raqobatbardosh mamlakat, ishonchli hamkor si-fatidagi obro'-e'tibori yuksalib bormoqda.

Hech shubhasiz, bularning barchasi diyorimizdag'i barqarorlik, do'stlik va hamjihatlik natijasidir.

Bugungi shukuhli oqshomda siz, azizlarga, olijanob va bunyodkor xalqimizga halol mehnatingiz, ona yurtqa sadoqatingiz uchun samimiy minnatdorchilik izhori etaman.

Qadri do'star!

Biz 2025-yilga mamlakatimizda Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili deb nom berdik.

Asosiy maqsadimiz – inson va tabiat muvozanatiga asoslangan tizim yaratishdir.

Yangi yilda biznes uchun yanada keng imkoniyatlar yaratiladi. Xususiy mulk daxsizligini ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish ishlarni qat'iy davom ettiramiz.

Ijtimoiy sohalari, ish haqi, pensiya va stipendiyalar, nafaqalar migdonini oshirish e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Farzandlarimizning zamonaviy bilim va kasb-hunar egalari, bar-kamol bo'lib tarbiya topishlari uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sport sohalariga e'tibor yanada kuchaytilridi.

Muhtaram faxriyalarimiz, xotinqizlar va yoshlarga g'amxo'rlik qilish, ijtimoiy himoya samarasini oshirish ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini mustahkamlash, harbiy xizmatchilar va ularning ola a'zolarni qo'llab-quvvatlash ishlarni yangi boscinchiga ko'taramiz.

Muxtasar aytganda, "Inson qadri uchun, inson baxti uchun!" degan olijanob maqsadni barchamiz birgalikda amalga oshiramiz.

Aziz va muhtaram yurdoshlar! Barchangizni, chet ellardagi vatandoshlarimiz, xorijiy hamkor va do'starimizni bugungi qutlug' bayram bilan yana bir bor chin dildan tabriklayman.

Yangi yil har bir inson, har bir oilaqa, jonajon yurtimizga katta-katta yutuq va omadlar olib kelsin!


Hamma ezgu niyatlarimiz ro'yobga chiqsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

YURGAN – DARYO

JOZIBADOR
SAYYOHLIK MARKAZI



2024-yil davomida O'zbekistonga jami 8,6 million nafar sayyoh tashrif buyurdi. Ko'rsatilgan turizm xizmatlari eksporti 2,7 milliard dollarni tashkil etdi. 2023-yilning shu davriga nisbatan ushbu ko'rsatkich 1,5 barobarga o'sdi. Sayyoohlarning o'rtaча xarakatlari 2022-yilga nisbatan 1,5 barobarga oshdi. (Davomi 3-sahifada)

YILBITIK



SO'Z DOVRUG'I

"Jadid" gazetasini bir yil davomida o'z o'quvchilarining qo'liga va qalbiga yetib bordi. Uning sahifalarida chop etilgan juda ko'plab manbalar O'zbekistonning yaqin tarixidagi eng qiziq, eng murakkab va shonli jadidlik harakatining mazmun-mohiyatini o'zida ifoda etdi. To'g'risi, jadidlik harakati, xususan, jadid adabiyoti mutaxassislar tomonidan bir asrdan beri o'rganib kelinadi. Sobiq tuzum zamoniqidagi taddiqotlarda ularga turilcha yondashuvlar bo'ldi. Hukmon davr mafkurasining korchalonari jadidlik harakatini g'ayrilmiy ravishda baholadi. Sun'iy tarix yozguvchilar xalqqa jadidlarning haqqoniy g'oyalarini, orzu-niyatlarini asl holida ko'rsatmaslikka urindi. Bir necha avlodga o'z bobolarli "dushman" sifatida tanitildi. Necha o'n yillar haqiqat quyoshining yuzini qora bulut qoplab turdi. O'ylab qarsala, jadidlik harakatining asos-negizida millat va Vatan tuyg'usi, istiqloq va istiqbol qayg'usi mujassamdir. Shunday g'oya va fikri uchun jadidlar qamaldi, surgun etildi, qatag'on qilindi. Gazeta o'z sahifalarida ayni tarixiy haqiqat bayonini taqdim etdi.

Gazetada bugungi ijtimoiy-siyosiy hayot, madaniy-maishiy turmush muammolari bilan uyg'unlashgan jadid allomalarining fikrlari taqdim etib borildi. Xususan, "Yurt qayg'usi", "Mutolaa", "O'zbek tilim – o'z tilim", "Bedorlik" kabi qator ruknlarida berilgan maqolalar ko'pchilikning e'tiborini tortdi.

(Davomi 2-sahifada)

ONAJONIM – TABIAT

YASHIL BOG'LAR –



Inson yashashi uchun zarur bo'lgan ne'matlardan biri – havo. Odamzod kistorodsiz atigi 2–5 daqqaqda yashashi mumkin, xolos. Shunday ekan, dov-daraxtlar, hayotbaxsh gulzorlar, qisqa aytganda, musaffo havo – tirikligimiz manbayi. Yurtimizda "Yashil makon" umummilliyligi loyihasining amalga oshirilayotgani ortida inson qadri masalasi turidagi.


HAYOTIY EHTIYOJ

Bugungi globallashuv, aholi, sanoat korxonalarini ko'paygan, tabiiy resurslarga putur yetkazilayotgan bir sharoitda ko'kalamlashtirish hayotiy ehtiyoja aylandi. Atrof-muhitni ko'z qorachig'iday asrab, xonardonimiz, hovli-joyimiz, ko'chamiz, qishlog'imiz, mahallamiz, shahar-tumanimizni ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish, avlodlarga tabiat ne'matlarni boricha yetkazish – burchimiz. Shu nuqtayi nazaridan, davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, "Yashil makon" umummilliyligi loyihasi bu – bir yillik tadbir emas.


Mazkur loyiha doirasida respublikada qarib 50 mln nafol o'tqaziladi. Buxoroda esa 7 millionga yaqin daraxt va buta ko'chatlari o'tqazish rejalashtirilgan. Ayni paytda jarayon qizg'in pallaga kirgan. Mutaxassislarining fikricha, Buxoro iqlimi juda murakkab.

(Davomi 2-sahifada)

BUGUNNING NAFASI



EL SALOMAT – KO'NGIL TINCH



Insoniy qadriyatlar moliyaviv va maishiyy farovonlik bilangina o'chanmaydi. Kishi jismonan sog'lim bo'imsa, moddiy boylik hayotning haqiqiy mohiyatini yashiradigan tashqi qobiq bo'lib qolaveradi. Shu jihatdan har bir ijtimoiy shaxs salomatligi nafaqat uning o'zi, balki u yashayotgan davlat uchun ham muhimdir. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar boshidayoq ilk e'tibor tibbiyot sohasiga qaratilgani ham bejiza emas, albatta.

Xususan, o'tgan 2024-yilda 33,4 trillion so'm faqat tibbiyot sohasini rivoylantirishga yo'naltirildi. Mana shu mablag'lar evaziga kasalliklarni erta anqliash va profilaktika qilish maqsadida respublika aholisining 95,5 foizi xatlovdan o'tkazildi va tekshiruvlar natijasida anqliangan 8,5 million nafer bemorlarning 25 foizi sog'limlashtirildi. Tez tibbiy yordam shoxobchalar soni 1766, tez tibbiy yordam brigadalari 2838, zamonaviy reanimatsiya avtoulovlar soni esa 510 taga yetkazildi. 11 ta investitsiya loyihiyaliga asosan 1246 turdag'i tibbiy jihozlar tibbiyot muassasalariga yetkazib berildi.



Hududlardagi tibbiyot birlashmalarining eski binolarni qurish-ta'mirlash ishlariga ham 1,3 trillion so'm sarflanib, kasalxonova oilaviy shifoxonalarning eskirgan imoratlari to'lig'icha yangilandi. Bemorlar shifokorga kirish uchun tor va sovuq yo'laklarda navbat kutib turmaydigan bo'ldi. Qabul bo'limlari elektron tizimga o'tdi, bemorlarning shifokor nazoratiga kirish vaqtini masofadan turib bermalol belgilash imkoniyatlari yaratildi.

Ayniqsa, bunday ishlari respublikamizning olis tumanlarida amalga oshirilayGAN juda quvonvari hol. Jumladan, Samarqand viloyatining chekka huddularidan biri – Paxtachi tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli tuman markazi shifoxonasi ham bugun butunlay boshqacha voqelegi. Bu yerda ayni kunlarda 278 o'rni kasalxonona binosin qayta ta'mirlash ishlari yakuniga yetay deb turibdi. Eng katta rekonstruksiya ishlari jonlantrish bo'limida amalga oshirildi. Binoning qabul bo'limiga tegishli qismi yangidan qurildi. Yo'laklar to'liq asfaltlandi, shifoxona hovlisi zamonaliv landshaft dizayni asosida ko'kalamlashirildi.

Amalga oshirilayotgan ishlari faqat qurilish-ta'mirlash bilan bog'liq emas, albatta. Islohotlar birlashmada faoliyat olib borayotgan ishchi-xodimlar shijoatiga ham yaxshigina ta'sir o'tkazdi. Bosh shifokordan

tortib oddiy xizmatchigacha birlashmaning moddiy-teknik bazasini yaxshilash maqsadida "Open budget" ijtimoiy tashabbuslar loyihasi doirasida faol ishtiroy etib, qo'shinchaga mablag'ni qo'lga kiritdi. Pirovardida MSKT (Multispiral kompyuter tomografiya), statsonian va portativ rentgen, sun'iy nafas olish apparatlari, defibriliyatorlar, garstro-fibroskoplar, bioximik va gemitologik analizatorlar, PZR uskunalar, ucta gemodializ apparati, eng yangi jarrohlik uskunalar va birlashma tarkibidagi hududiy bo'limlarga 16 dona EKG apparatlari olindi. Elektr bilan bog'liq muammollar sodir bo'lmasi uchun markazi shifoxonaga 100 kvt. dizelezeneratori va tashqi zamonaviy quyosh datchiklari ham o'rnataldi.

Boshqa tumanlardagi markazi shifoxonalariga nisbatan bizda diagnostika va davolash salohiyati yuqoriladi, – deydi Paxtachi tuman tibbiyot birlashmasi rahbari Ulug'bek Suvonov. – Imkoniyatlarimiz kengaydi, yuqori texnologik jarrohlik ishlari shu yerning o'zida amalga oshirayapmiz. Endoskopik, laparoskopik, artroskopik operatsiyalarini tajribali shifokorlarimiz o'tkazmoqda. Eng katta muvafaqiyatlarimizdan biri esa chanoq son bo'g'ini endoprotezlash amaliyoti yo'lg'a qo'yildi. Shuningdek, ucta tumanlararo – qo'shma shikastlanish va o'tkir

yurak-qon tomir kasalliklari, gemodializ va hushyorxonalar markazlari faoliyatini ham yo'lg'a qo'yidik. Maqsad – bemorlar uchun qulay shart-sharoitlarni yanada ko'proq yaratish, odamlarning dardiga davo istab uzoq masofalarga ovora bo'lib yurishlarining oldini olish, tibbiy xizmat tezligini va sifatini yaxshilash.

Darhaqiqat, tuman miyosida xalq salomatligini yaxshilash va buning uchun yetarli qulayliklarni oshirish maqsadida qilinayotgan ishlar o'zsamarasini bermoqda. Hozirgi kunda har ikki ming kishi uchun bitta tibbiyot brigadasi faoliyat yuritapti, tibbiyot klasterlari ishlaamoqda. Birlashmaga qarashli beshta oilaviy poliklinika, o'n bitta shifokorlik punktlari internet va lokal tarmoqlar bilan ta'minlangan. Birlamchi tibbiy xizmat "Bir qadam" tamoyili asosida tashkil etilmoqda.

SARHISOB: 2024 -YILDA TIBBIYOT

2024-yilda tibbiyot sohasida kasalliklarni erta anqliash va profilaktika qilish maqsadida yurtimiz aholisining 34,8 mln naferi (95,5 foizi) tibbiy xatlovdan o'tkazilib, anqliangan 8,5 mln nafer bemor sog'limlashtirildi.

Sog'liqi saqlash tizimida "Elektron poliklinika" va "Elektron shifoxona" axborot tizimlari takomillashtirilib, "Yagona tibbiyot axborot tizimi" (DMED) joriy etildi. Mazkur tizim Toshkent shahri, Sirdaryo viloyoti va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi birlamchi bo'g'in muassasalarida to'liq ishga tushirildi.

Shu o'rinda shifokorlarning tibbiy bilimi va malakasini oshirish va qayta tayyoralash yo'naliishlarini transformatsiya qilish masalasida ham olg'a qadamlar qo'yilayotganini aytib o'tish joiz. 2023-yilda ikki nafer shifokor jarrohlik va travmatologiya-ortopediya yo'nalishi bo'yicha Novosibirsk shahrida o'quv kurslarida tajriba orttirib

qaytgan bo'lsa, o'tgan yili ulardan yana o'n nafari Belorussiya respublikasining nufuzli klinikalariga malaka oshirish uchun yuborildi. Qirqdan oshiq oilaviy shifoxona xodimlari Samarqand davlat tibbiyot universitetining kardiologiya kafedrasi EKG kursida qayta o'qitildi.

Joniantirish bo'limida tashqaridan kela-yotgan chang, infeksiya va har xil turdag'i viruslarning ushlab qolinishi, bemorlar steril holatda saqlanishi uchun asseptik havo almashinuv sistemasi o'rnatilgan. Mikroblarni o'dirib turuvchi ultrafaiolet lampalar yo'laklar bo'ylab qo'yilgan. Devor har tomonдан antibakterial qoplamlar bilan qoplangan. Har bir bemorning bosh tarafida kardiomonitor, xonalarda esa kislorod tarquvvchi apparatlar ishlab turibdi.

– Gemodializ jarayoni to'rt saat davom etadi, – deydi bo'limning navbatchi hamshirasi Go'zel Maxfiratova. – Yillar davomida bemorlar ana shu to'rt saatlik muolaja uchun kasal holiga uzoq yo'il bosib, viloyat markazi yoki Kattaqo'rg'on, Navoiy shaharlariga borishiga to'g'ri kelar edi. U yerda ham navbat kutib qynishardi. Buyragi ishlamagan odamning organizmi zaharanaveradi. U har ikki-uch kunda buyrak tozalatib, qonini yuvdirib turishga majbur. Tez-tez muolajaga qatnashning o'zi bo'ladimi? Bo'limning tashkil qilingani bemorlarimiz og'irini engil qildi, xarajatini kamaytirdi. Dori-darmonlar ham to'lig'icha davlat hisobidan kasalxonaning o'zida beriladi, bemor ovora bo'lmaydi.

Ha, xalqimizning mana shunday e'tiborga ehtiyoji bo'edi. Ayniqsa, tanasiga kirgan dard bilan olishib, quvvat pasaygan xasta insonlarning mushkuli oson bo'layotgani har qancha ta'rifga arzysi. Yuqorida sanab o'tganlarimizdan tashqari respublika bo'ylab "Elektron poliklinika", "Elektron shifoxona" axborot tizimlari ham takomillashtirildi. "Yagona tibbiyot axborot tizimi" (DMED) joriy qilindi. Shu yilning o'zida Toshkent shahridan boshlab qo'llanilishi rejalashtirilgan "elektron retsept tizimi" ni joriy etishga qaratilgan pilot loyihibar tasdiqlandi. Ungra ko'ra bemorlarga dori vositalari dorixonalardan to'g'ridan to'g'ri bepul tarqatiladi. Muhimi ham shu, bu elning joni sog', ko'ngli tinch bo'lsin!

Muhayyo PIRNAFASOVA

Boshlanishi 1-sahifada.

SARHISOB: 2024 -YILDA TURIZM


Buxoro viloyati kesimida tahlil qilinganda, o'tgan yilning so'nggi 9 oy mobaynida viloyatga 1 million 118 ming nafer xorijiy sayyoohlarni doim qiziqitirib kelgan. Xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshlikni ta'minalash va sayyoohlarni sezilarini darajada oshirish uchun esa, transport infra-tuzilmasini takomillashtirish, yo'llarni rekonstruksiya qilish va to'g'ridan to'g'ri aviaqatnovlar sonini ko'paytirish muhim o'rin tutadi. Ayni jihatlarga qaratilgan e'tibor tuyafli viloyatda turizm sohasida salmoqli yutuqlarga erishildi.

Ma'lumki, Buxoro noyob tarixiy obidalar, me'moriy ansambllari va ko'p asrlik madaniyati bilan mashhur. Qadimiy shahar YUNESKOning Butunjalon merosi obyekti sifatida o'z sayyoohlilik infra-tuzilmasini bilan butun dunyo sayyoohlarni doim qiziqitirib kelgan. Xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshlikni ta'minalash va sayyoohlarni sezilarini darajada oshirish uchun esa, transport infra-tuzilmasini takomillashtirish, yo'llarni rekonstruksiya qilish va to'g'ridan to'g'ri aviaqatnovlar sonini ko'paytirish muhim o'rin tutadi. Ayni jihatlarga qaratilgan e'tibor tuyafli viloyatda turizm sohasida salmoqli yutuqlarga erishildi.

Darhaqiqat, 2024-yili viloyatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida sayyoohlilik tajribasini yaxshilash, xorijiy va mahalliy mehmونlar tashrifini rag'bata-lantiruvchi tashabbuslar doirasida keng ko'lamlili ishlar qilindi. Xususan, ichki turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan "O'zbekiston bo'ylab sayohat qill!" dasturi bo'yicha boshqa viloyatlardan 3,1 million kishi tashrif buyurdi. Mahalliy aholiga o'z mintaqasining tarixiy merosini chuqrurqo tushunish imkonini beruvchi ma'rifiy sayohatlar va madaniy tadbirlari o'z ichiga olgan mazkur dastur tarixiy joylarga, shuningdek, etnik-madaniy turizmni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ekskursiyalar tashkil etishga turki berdi.

Yangi turar joy binolarni barpo etish va transport infratuzilmasini yaxshilash,

JOZIBADOR SAYYOHLIK MARKAZI



ko'sratilayotgan turizm xizmatlari hajmini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar ham Buxoroning turizm markazi sifatida jadal rivojlanayotganidan dalolat. Sunday chora-tadbirlari viloyat iqtisodiyotiga uzoq muddatli jibiy ta'sir ko'satib, madaniy tarixiy merosini asrab-avaylashga xizmat qiladi.

Xalqaro sayyoohlilik oqimining ko'payishi mintaqanining madaniy va tarixiy merosini targ'ib qilish bo'yicha olib borilayotgan maqsadli sa'y-harakatlar samarasidir. Ayniqsa, tarix va etnik an'analarga asoslangan yangi sayyoohlilik mahsulotlari turi ko'paygani sabab xorijlik sayyoohlarda mintaqaga qiziqish yanada kuchaydi. Abu Ali ibn Sino tug'ilib o'sgan Afshona qishlog'ida barpo etilgan "Etnik turizm shaharchasi" ana shunday loyihalardan biri

bo'ldi. Xullas, puxta o'ylangan strategiya va turizm infratuzilmasini rivojlanirishga kompleks yondashuv Buxoroning xalqaro sayyoohlilik markazi sifatidagi mavqeyini mustahkamlamoqda. Xorijiy va mahalliy sayyoohlarni sonining ortib borayotgani mintaqanining iqtisodiy, ham madaniy ravnaqiga xizmat qilib, uni uzoq muddatli sarmoya-viy va qisqa muddatli turistik sayohatlar uchun jozibador qiladi.

Turizm industriyasining hozirgi tendensiylari madaniy, ko'ngilochar va ekologik jihatlarini o'zida mujassam etgan turistik mahsulotlarni yaratishga kompleks yonda-shuvni talab qiladi. Shu bois sayyoohlarning turli toifalarini ehtiyojlari qondiradigan noyob infratuzilmani yaratish va sayyoohlarning qiziqishini kuchaytirishga qaratilgan loyihalarga e'tibor qaratilmoqda.

Gastronomik ko'chalar va etnik aholi punktlari barpo etilyapti. Bunday aholi punktlarida sayyoohlolar mahalliy urf-odatlar, hunarmandchilik va qadimiy tangalar, mehnat qorllari va artefaktlar bilan tanishishlari mumkin. Milliy taomlar namoyish etiladigan gastronomik ko'chalar esa sayyoohlarga O'zbekiston pazandalik an'analari bilan yaqidan tanishish imkonini bermoqda. O'zbek milliy taomlarini tayyoralash bo'yicha muntazam tashkil etilayotgan festival va mahorat saboqlari sayyoohlarning qiziqishlarini yanada kuchaytiradi.

O'zbekistonda ekoturizm va madaniy turizmi rivojlanirish barqaror turizmning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Mamlakatning tabiiy boyliklari, jumladan, tog'li hududlar, qo'riqxonalar va cho'llar ekoturizm yo'nalishlari uchun asos bo'ladi. Bu nafaqat turizmni rivojlanirish, balki tabiiy landshaftlarni asrab-avaylash, ekologiya va barqaror turizmga bo'lgan qiziqishni ham oshiradi.

Turizm infratuzilmasini kengaytirish va turli toifadagi sayyoohlarni quylayliklar yaratish maqsadida mintaqada yangi ko'ngilochar hududlar, jumladan, akvaparklar va boshqa turistik majmualar barpo etilmoqda. Masalan, To'dako'lda bolalarga mo'ljalab qurilayotgan akvaparkda suv attraksionlari, basseynlar, dam olib wa ovqatlanish joylari bo'ladi. Bundan tashqari, 60 dan ortiq yangi joylashtirish obyektlari, jumladan, mehmomonalar, hostellar va isitiladigan mehmon uylarini quşish rejalashtirilgan.

2025-yilda viloyatda umumiy qiymati 106,4 million dollarlik 44 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan. Shundan 20 million dollarli to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Bu loyihalular qatorida 37 ta mehmomonxona, 1 ta hostel, 3 ta motel, 1 ta restoran, ekoturizm markazi va yirik turistik savdo majmuasi barpo etiladi.

Bunday yirik xorijiy investorlarni jalb qilish nafaqat turizm infratuzilmasini yaxshilashga, balki mehmomonxona va restoran biznesiga ilg'or texnologiyalarni joriy etishga munosib hissa qoshadi. Bu esa sayyoohlarga xizmat ko'rsatish sifatini sezilarli darajada yaxshilab, xalqaro va ichki turizmni yanada rivojlaniradi.

Tahliilarga ko'ra, mazkur loyihalarning amalga oshirilishi natijasida 2025-yilda Buxoro viloyatiga tashrif buyurdigan sayyoohlarni 6,1 million kishi ga yetishi, turistlar ko'payishi va infratuzilmaning yaxshilanishi evaziga turizmdan tushadigan daromad 550 million dollar gacha oshishi kutilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, kiritilayotgan investitsiyalar yangi ish o'rnilarini yaratish, xizmatlar sifatini yaxshilash va sohadan tushadigan daromadlarni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu loyihalalar mamlakatni xalqaro sayyoohlarni uchun jozibador manzilga aylantradi va turizm xizmatlari eksportini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'shishni ta'minlaydi.

Ushbu tashabbuslarning amalga oshirilishi sayyoohlarning yurtimizda o'rta-cha bo'lish muddatini 4 kundan 5,5 kunga oshirishga, qariyb 10 ming yangi ish o'rni yaratishga, turizm sanoati va unga aloqador tarmoqlarda 80 ming kishini ish bilan ta'minlashga olib keladi. Natijada Buxoro nafaqat jozibador sayyoohlilik maskaniga, balki mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydigan, uning uzoq muddatli ravnaq topishi uchun sharoit yaratadigan muhim xalqaro turizm markaziga aylanadi.

**Olim ASTANAQULOV,
O'zbekiston xalqaro islam
akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi,
ziyorat turizmi kafedrasini mudiri,
professor**

TILAKLAR

Muhammad AHMEDOV,
O'zbekiston Qahramoni**"DEHQONKI,
DONA SOCHAR..."**

Asli, bolaligimdan yer bilan tillashib kelyapman, umrim tuproq kechib o'tmoqda. Bitta bug'doy, bitta chigit uchun yer tishlab, loy changallagan davrlarimiz bo'ldi. Lekin bugun noroziligidan yo'q. Mehnatidman rizq keldi, elga tanildim. Shu kunlari bolalikda o'qiganim hazrat Navoiyning so'zlarini tez-tez yodimga tushadigan bo'lib qolgan: "Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar..." Shukru, o'zigaqina emas, butun elga rizq ulashshiga asl dehqonlar qadr topgan zamontlarga yetishdik.

Og'zini to'ldirib, bozorlarimiz to'kin, deydiqanlarning aksariyati bu to'kinlik ortida dehqon-u fermerlarning mashaqqatlari mehnati yotganini ba'zan o'ylamaydi. Lekin dehqonning o'zi mehnatining mashaqqatidan ko'ra, yaratilgan imkon-u sharoitdan foydalanib qolishni ko'zlayapti. Chunki yildan yilga daromadi ortib, yetishtirgan mahsuloti ichki bozorlardan toshib, xorij mamlakatlariga eksport bo'lmoida. Eng muhim, u mehnati munosib qadr topganidan xursand.

Bugun shunchaki dehqon bo'lismning o'zi kamlik qiladi, fermer bo'lish tadbirkor bo'lish ham demakdir. Biz 2024-yilda fermer xo'jaligimizda dehqonchilikka yangi agrar texnologiyalarini joriy qilib, yooqilg'i, mineral o'g'it sarfini tejab, texnika va ish kuchini kamaytirishga erishdik. Natijada olayotgan foydamiz keskin ortdi. Yuz gektar yerdan tejalgan 362 million so'm mablag' yonimizga qoldi. Bu mablag' ishchilarimizning oilasiga to'kinlik, mahallamizga farovonlik boisi bo'lmoida.

"Jadid" gazetasini yurtimizda yuz berayotgan shunday olamshumol ishlarni xolis va haqqoni yoritgani uchun ham muntazam o'qib boraman. Yangi yilda gazeta xodimlariga ham, ayniqsa, uning o'quvchilariga uzoq umr, farovon turmush, ish va ijodiga baraka tilayman.

Vali Savash YELOK,
Ankara Hoji Bayram Vili
universiteti professori:

Assalomu alaykum, muhtaram "Jadid" gazetasi jamoasi va qadrligi gazetxonalar, barchangizni Yangi yil bayrami bilan muborakbos etaman.


To'g'risi, "Jadid" men uchun ehtiromqa munosib bir minbarga aylandi. O'tgan 2024-yilda Toshkentga ikki marta xalqaro ilmiy anjumanga bordim. O'shanda hamsafar professor yo'ldoshlarim bilan birga "Jadid" gazetasini tahririyatida mehnom bo'ldik. Bosh muharrir Iqlob Mirzo, tahririyat xodimlari bilan fikr almashib suhbatlashdi.

"Jadid"da o'zbek shoiri Botu haqida maqolam bosildi. Bundan xursand, bo'ldim. Darvoqe, gazetada bizning Hoji Bayram Vili universiteti professori, jadidshunos olim Zaynobiddin Abdirashidovning bir necha jiddiy maqolasi yoyinlandi. Shu zaylda, demoqchimanki, bizonning ilmiy-pedagogik jamao bilan siz "Jadid"lar orasida o'zaro hamkorlik yo'lg'a qo'yildi:

TADQIQOT

XUN EVAZIGA KELTIRILGAN QO'LYOZMA

yoxud "g'atali mashhur" lardan biri xususida

**HAQ DA'VOSIDAGI YOLG'ON**

Xuddi rost so'zdek xalqning inonchiga aylanib qolgan yolg'onlarga nisbatan qo'llanadigan "g'atali mashhur" degan ibora bor. Bu ibora ko'pincha tanqli shaxslar va tarixiy voqealodisalarga oid noto'g'ri ma'lumotlar, mish-mishlarning omma orasida keng yoyilib, haqiqat to'nini kiyishiga nisbatan qo'llaniladi.

Qalamga olmoqchi bo'lganimiz ilmiy muammo ham ana shunday "g'atali mashhur" lardan. Masalaga teranroq nazar solish uchun ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lgan ayrim dalillarni keltirmoqni joz deb bildik: atoqli navoiyshunos olim, professor Hamid Sulaymon 1968-yili Alisher Navoiyning 1466-yili ko'chirilgan devoni qo'lyozmasining faksimil nashrini "Ilk devon" nomi bilan nashr ettiradi. Ushbu qo'lyozma Sankt-Peterburgdagi davlat xalq kutubxonasida 564-raqam bilan saqlanadi. Qo'lyozma rus yozuvchisi va diplomati Aleksandr Gribovedovning xuni bahosiga Eron shohi tomonidan 1829-yili sovg'a qilingan ekan.

Hamid Sulaymonning fikricha, "Hirot badiy qo'lyozmalarining shoh kitoblaridan bira bo'lgan bu devon Navoiy zamonasining buyuk san'atkor xattoti, "xattotlar sulton" deb shuhrat qozongan Sultanoli ibn Muhammad Mashhadiy (836-926/1432-1520) tomonidan 870/1465-1466-yili ko'chirilgan. Binobarin, mazkur devon shoirning 25 yoshgacha ijod qilgan she'rلаридинг ташкил топғандар".

Ushbu devonning badiyati, Navoiy lirikasining xronologiyasidagi o'rn va ahamiyatni haqida Hamid Sulaymon, Porso Shamsiyev, Yoqubjon Is'hogov, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdu'afurov, Dilorom Salohiy, Nodir Ramazon, Aftondil Erkinov, Rustam Jabborov singari olimlarning tadqiqotlarida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Ayni chog'da, asosiy savol ochiq qolmoda – fan tarixida "Ilk devon" nomi bilan mashhur bo'lgan qo'lyozma haqiqatiga ham Navoiyning muixlislari tomonidan tartib berilgan, ammo shoirning o'zi ko'rmagan ilk devonimi? Ushbu devonda Navoiy yigirma besh yoshgacha yaratgan lirik asarlar jamlangan rostmi?

Bunday zalvorli savollarga bir maqolada batafsil javob berish amrimahol. Katta tadqiqotlarga mavzu bo'ladijan mazkur masalaga oydinlik kiritish uchun bu galcha qisqa chizgilar bilan kifoyalanamiz.

TILDAN DILGA KO'CHGAN SATRLAR

Alisher Navoiy aynan qaysi g'azallarini o'spirinlik va yigitlik chog'ida yaratgani haqida aniq xulosaga kelish mushkul. "Xazoyin ul-maoni" kuyutiga qat'iy tartib asosida kiritilgan 2600 ta qazaldan ayrimlari haqida mualifining o'zi boshqa asarlarida ma'lumot bergen.

Jumladan, "Holot Sayyid Hasan Ardasheri" da shoir umri davomida "ota masobasida" (ornida) – yuksak maqomda bo'lgan Hasan Ardasheri bilan ilk uchrashvi Hirotda kechganjan xotiriyadi. Mazkur diyorlashuv Sultan Ibrohim Mirzo Hirotda hukm yuritgan yilga to'g'ri kelganini qayd etib o'tadi. Abdurrazgo Samarkandi "Matla'i sa'day va majma'i bahrayn" asarida shahodat berishicha, Ibrohim Mirzo 1456-yili qisqa muddat Hirotni egallagan. Bu vaqtida Navoiy endi o'n besh-o'n olti yoshga to'lgan bo'lsa hamki, uning q'azallari tillardan tillarga, dillardan dillarga ko'cha boshlagan ekan: "Chun ul avqotda faqirning nazmlari Xurosanda shuhurat tutub erdi, alar dag'i iltifot qilib, ba'zi abyotni ko'p o'qurlar erdi va majolisda xushvaqt bo'lrular erdi".

Ul jumladin bu matla'durkim, fard:

Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,

Lolalar ermaksi bag'rimdin erur pargolalar.

Yana bir bukmik:

UI parivashkim bo'lubmen zor-u sargardon anga,

Ishqdin olam manga hayron-u men hayron anga.

Bu baytni dag'i ko'p o'qurlar edikim:

Labing ko'rgach iligim tishlaram har dam tahayyurdin,

Ajab holatki, tutmay bolni barmoq yalaydurmen.

Masnaviydin bu bayt yodllarda erdi:

Har nechaki puxta bo'lsa tadbir,

Berur anga go'shmol taqdир.

Navoiy "Holot Pahlavon Muhammad" asarida aziz zamondoshi bilan bog'liq xotiralarini eslash asosida Abu Said Mirzo davrida Mashhadrabb bo'lgan qiziqarli voqeani keltiradi. Tabib Mavilon Abdussalom Sheroziy masofil (bod, revmatizm) bilan og'igan yosh Alisherga muolaja uchun uqalash usulini tavsiya qiladi. Tabobatdan yaxshi xabardor va o'sha kezlar Mashhadda bo'lgan Pahlavon Muhammad Navoiyga mehribonlik ko'rsatib, bu ishni o'zi bajarishini aytadi. Suhbatlardan birida u yosh shoirdan turkiy qalam ahliдан qay birini ma'qul ko'rishini so'aydi. Navoiy avaliga barcha shoirlarini surmat qilishini aytadi. Lekin Pahlavon Muhammad ular orasida tafovut bor, takallufni qo'yib, o'zingiz eng ma'qulini aytib, deb qistagach, Navoiy "Lutfiy – bu qavmning ustodi", deya javob beradi. Pahlavon Muhammad nega Sayid Nasimiysi esga olmaganini so'raydi. Navoiy Lutfiuning majoz yo'sinida she'r aytishi, Nasimiying she'rleri esa haqiqat tariqida bitilganini bayon etadi. Shunda Pahlavon Muhammad Nasimiying she'riyat zoahiran majoz, ma'no jihatidani esa haqiqat yo'sinidir. Deydi wa o'sha kuni Navoiy tomonidan tongda yozilib, hal hech kimga ko'rsatilmagan g'azalni yoddan o'qiydi, maqta'dagi "Navoiy" taxallusi o'rniqa "Nasimi"ni qo'yadi:

Gar Navoiy siybarlar vaslin istab ko'rsa ranj,
Yo'q ajab, nevchungi, xom etgan tama' ranjur erur.

Navoiy bu holdan hayratga tushadi. G'azal yozilgan qo'ozinizi tekshirib ko'radi – varaq o'z joyida turgan edi. Ertasi tongda Pahlavon Muhammad uch-to't kishini o'sha g'azalni o'n ikki yil burun Abulqosim Bobur majlisida "tinglab, yod olgani"ni isbotlash uchun guvoh o'laroy

keltiradi. Boz ustiga, ular ham g'azalni yoddan aytib beradilar. Navoiyning taajibu chandon ortadi.

Keyin ma'lum bo'ladiki, Pahlavon Muhammad o'sha kuni yosh shoirning liboslarini orasidan yangi g'azal qo'lyozmasini topib, yod oladi va yana joyiga qo'yadi. So'ng esa boyagi hazil sahnasini uyustiradi.

Navoiyning yoshlik davri ijdiga oid yana bir manba – Xondamirning "Makorim ul-axloc" asaridir. Unda keltirilishicha, o'z davri malikulkalomi bo'lgan Mavlono Lutfiy o'smir Navoiyning "Orazin yopqoch..." deya boshlanuvchi g'azalini eshitib, "Agar imkon bo'lganida o'n ming dastlub ortiq bo'lgan turkiy va forsiy she'rларим devonini ushbu baytg'a alishitrardim", degan ekan.

Navoiyning o'zi bergan guvohlikka asoslanib, biz beshta g'azalni qat'iy ravishda shoirning o'smirlik davriga mansub deb bilamiz. Ushbu g'azallar ilk rasmiy devon – "Badoye" ul-bidoya'da quyidagi tartibda keltirilgan:

Ul parivashkim, bo'lubmen zor-u sargardon anga,
Ishqdin olam manga hayron-u, men hayron anga.

(23-g'azal).

Orazin yopqoch, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
O'ylikim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh.

(285-g'azal).

Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,
Lolalar ermaksi, bag'rimdin erur pargolalar.

(140-g'azal).

Har qayon boqsam ko'zung'a ul quyoshdin nur erur,
Har sari qilsam nazar, ul oy manga manzur erur.

(179-g'azal).

Meni bedil sanga jon o'ynamoq birla yaraydurmen,
Bale, sen tiflini bu tuhfa birla arg'adaydurmen.

(525-g'azal).

Labing ko'rgach, iligim tishlaram har dam tahayyurdin,
Ajab holatki, tutmay bolni barmoq yalaydurmen.

UCH DALIL

Sanab o'tilgan g'azallardan faqat "Ul parivashkim bo'lubmen zor-u sargardon anga" misrasi bilan boshlanadigan "Ilk devon"dan o'rın olgan.

Birinchi dalil: Navoiyning yoshlik davrida yozilgani qat'iy aniq bo'lgan besh g'azalidan faqat bittasi "Ilk devon"ga qo'shilgan, qolgan g'azallar ilk aro shuhrat topganiga qaramay, unga kiritilimagan.

Mazkur g'azal "Badoye" ul-bidoya" hamda "G'aroyib us-sig'ar"dagidagi matnlardan biroz farq qiladi. Quyida tafovutli baytlar keltirib o'tamiz:

To'rtinchu bayt:

Novakining parru paykonida rangin tus erur

Yoki ko'nglumdin chu parron o'tti, yuq mish qon anga.

("Badoye" ul-bidoya", 23-g'azal).

Novakining parru paykon-u (?) rangin to'r erur,

Yoki ko'nglumdin chu parron o'tti, yuq mish qon anga.

(Ilk devon, 3-b).

Oltinchi bayt:

Xizri xattingning ajab yo'q sabzu xurram bo'lmog'i,

Labbalab chunkim berur su chashmayi hayvon anga.

("Badoye" ul-bidoya", 23-g'azal).

Xizr xattingning ajab yo'q sabzu xurram bo'lmog'oy,

Lab-balab chunkim suv berur chashmayi hayvon anga.

(Ilk devon, 3-b).

Yettingchi bayt:

Ey xusho, mug' dayr ko'yikim, ziynat bila rif'atda bor,

Mehr anga bir shamsava ko'k toqidur bir ayvon anga.

("Badoye" ul-bidoya", 23-g'azal).

Ey xusho, mug' dayr ko'yikim, ziynat bila rif'atda bor,

Mehr anga bir shamsava ko'k toqidur bir ayvon anga.

(Ilk devon, 3-b).

Navoiy qit'alardan birida Sultonalining qalami taqdир qalamidek xatosiz yozadi, deya ta'rif bitgan:

Qiblat ul-kuttobkim, derlar ani Sultan Ali,

Kim qazo qilki masallilik xomasini yozmas g'at.

Qaysi qit'amniki yozdi bordi andin she'rlik,

El solurlar juzvdong'akim, erur bir qit'a xat.

("G'aroyib us-sig'ar", 47-qit'a).

Boshqa bir qit'ada esa, xatolar ila ko'chiruvchi kotiblarga "Yuzin nomasidek qora aylabon, Qalamdek boshin dag'i yormoq kerak" deb tanbeberdi.

<p

MULOHAZA

Tanishim qishloq xo'jalik xodimlari bayramida "Ilg'or tomorqachi" ko'krak nishoni bilan taqdirlanganidan xabar topib, uni qutladim. Bu inson ko'p yillardan buyon mo'jazgina tomorqasidagi issiqxonada turli ko'kat-u sabzavotlar yetishtirib, oиласини boqadi. Ta'rifi qishlog'dan chiqmagan odam... Gap ohangda ozroq iymanish ham sezildi: "Men... o'z olim uchun ishlasmash... bu yodqa hokim biva ko'pchilik orasida minbarga chaqirib, ko'ksimga nishon taqib qo'yalar. Davlatga don-u paxta yetkazib berayotgan fermerlardan sal uyaldim-da..."

Aytaman: "Siz qo'shimcha daromad topish uchun yil bo'yini ter to'kasiz. Bu bilan bozorlar to'kin va arzon bo'lishiha ulush qo'shasiz. Mehnatningizga munosib baho bu! Tomorqasini partava aylantirib, davlatdan bir nima undirish g'amida yurganlar ozimi!"

Ishqilib, uning xijolatpazligi eriganday bo'ldi. Telefonimga ko'krak nishoni suratini yubordi. Chiroliy nishon. Ko'ksiga taqib tushgan suratini so'rasam, rozi bo'lindi. "Endi... biz bir oddiy dehqon bo'sak..."

Shu bahona uch yil oldin tengqurim bo'lgan yozuvchi qo'ng'iroq qilib aytgan g'alati taklif esimga tushdi: "Akademik bo'lgining bormi?" Umrida ilmiy ish bilan shug'ullanmagan, aqallli, nomzodlik rutbasi yo'q kamina taklifdan ajablandim: "Men olim bo'lmasam..." Tanishim gapni bo'ldi: "Olim bo'lisch shartmas. Belgilangan pulini to'lasangiz... akademik diplomi qo'lingizda!"

"Sa'vdo"miz pishmadi – taklifni rad qildim.

Oradan ko'p o'tmay, o'sha tanishim qalin muqvali akademikklik diplomi va ko'krak nishonini ko'satib, maqtandi: "Tumanimizдан menaga qadar biror akademik chiqmagan ekan!"

...Qo'shni tumanda tanqli bir olim xotirasiga bag'ishlab tadbiq o'tkazildi. Boshlovchi galmagal xotira aytmoq bo'lganlarga so'z beryapti. Navbatdagi notiqni davraga chorlashdan oldin uning besh-oltifa nishonini sanadi. U ham sahnaga ko'ksining yarmi to'la yaltiroq nishonlar bilan chiqib keldi. Yonimda o'tirgan tuman hokimi o'rinnbosari sekin so'radi: "Shu nishonlar haqiqimi?" Bexos tilimga kelgan gapni aytib yubordim: "Agar pulini to'lasangiz, bunaqa nishonlardan besh-oltitasini bir kunda taqasiz..."

O'zbekiston Fanlar akademiyasining qay darajada mo'tabas dargoh sanalishi, unga a'zo bo'lisch uchun olimlarimiz ko'p yillar ter to'kib, ilm-fan sohasida maktab yaratishi zarurligi, bunday zahmatkash olimlarning hurmati va qamoni ham baland ekanini barchamiz yaxshi bilamiz.

Hozir biz huquqiy-demokratik jamiyatda yashayapmiz. Turli jamoat tashkilotlari, shu jumladan, ijodiy uyushmalar va hatto, akademiyalar ochilishi erkin, demokratik jamiyatning huquqiy tamoyillaridan biri. Istagan fuqaro shunday jamoat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar tashkil etishi va unga a'zolar jalb qilib, shu orqali o'zi va a'zolaringan ijod namunalari targ'ibot-tashviqotini yuritishi, tadbirlar tashkillashtirishi mumkin. Yoki jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan akademiyaga ilmga chanoq, ilmiy izlanishlarga havasmand yoshlarni tortib, ularning ilmiy maqolalari (kashfiyotlari)ni keng ommaga taqdim qilish orqali ko'pchilikni ilm-fanga qiziqirishi tabiy hol. Ammo...

Atamasiga "ijtimoiy", "falsafiy", "badiiy" so'zlar tirkagan qandaydir akademiya akademikklik unvoni, uning qandaydir nishonlarini (orasida "xizmat ko'rsatgan adib" va boshqa faxriy unvonlari ham bor) pul evaziga tarqatishi qaysi mezonlarga to'g'ri keladi? Umrida bir-ikkiti piyoz po'chog'idek yupqa kitobcha chiqqargan (nusxasi ko'pi bilan 200-300 atrofida) ayrim havaskor shoir va yozuvchilar bir dumalab "akademik" bo'lib qolyapti. Hatto, birorta risolasi nashr yuzini ko'magan "ishtiyoqmand"lar ham o'sha akademiyaning nishonlariga aylanmoqda.

Mayli, buni havaskor ijod ahlini ma'nан qo'llash, deylik. Ammo bugun bir yuzulab akademik bo'lganlar to't qator she'r ostiga o'zini "akademik shoir" deb qayd qilayotganiga nima deymiz?

Shu bahona uch yil oldin tengqurim bo'lgan yozuvchi qo'ng'iroq qilib aytgan g'alati taklif esimga tushdi: "Akademik bo'lgining bormi?" Umrida ilmiy ish bilan shug'ullanmagan, aqallli, nomzodlik rutbasi yo'q kamina taklifdan ajablandim: "Men olim bo'lmasam..." Tanishim gapni bo'ldi: "Olim bo'lisch shartmas. Belgilangan pulini to'lasangiz... akademik diplomi qo'lingizda!"

Yaxshi gumonda bo'lamiz, menimcha, shunday!

Davlat mukofotlari maqomiga kirmaydigan turli ko'krak nishonlari vazirliklar, idora-tashkilotlar tomonidan ta'sis qilinib, sohada uzoq yillar ishlashga kishilarga berilishi qonunlarida belgilangan. Bunday nishonlarni ta'sis qilish va odamlarni mukofotlashga oid nizomlar ham bor. Turli darajadagi "mehnat faxriysi" yoki tarmoqlar bo'yicha ta'sis qilgan "... a'lochisi", "... faxriysi", "... fidokori" kabi nishonlarni ham shu qatoraga qo'shamiz. Bunday nishonlarga munosib ko'rligan nishonlarni qutlaymiz ham. (Oddiy tomorqachi quvonchiga sherik bo'lganim ham shundan).

Jamoatchilik asosida tashkil qilingan turli ijodiy uyushmalar (va hatto, akademiyalar) qo'shni respublikalarda ham anchagina. Ba'zi hamyurtlarimiz ana shunday ko'krak nishonlariga sazovor bo'lgani haqidagi xabarlarini eshitamiz. Keyinchalik ma'lum bo'ladi, bu nishonlar solitarkalar – kim pulini to'lasa, o'shaniki.

Ochig'i, hozir "nishonpazlik vasvasasi" tashxisi nomalum xastalikka aylandiki, "Kimda ko'p nishon bor?" degan poygaga mukasidan ketganlar safi ko'paymoqda. (Ularning tadbir-larga ko'ksini to'ldirib yaltiroq nishonlarni osgancha mag'rur kirib kelishlarini aytmay qo'ya qolay).

Vohalik bir ijodkorni yaxshi taniyman. Tajribali journalist va publisitsi o'laroq umrining yarmini axrivilarda o'tkazib, bir asr ilgari yashab o'tgan jadid bobolarimiz haqida qimmatli materiallarni to'plab, onga yaqin kitob chop ettdi. Garchi ilmiy darajasi bo'lmasa-da, bir o'zi bir ilmiy tadqiqot institutting jamoasi bajaradigan ishlarni amalga oshirdi. Uning mashhaqqatli mehnatlari ijodiy tashkilotlar nazaridan chetda qoldi – birorta mukofot olmadidi. Aslida, o'zi innovatsion usul! Qoyilmisiz?

ham bunga intilmasdi. Yaqinda shu jurnalisting akademik bo'lgani haqida ijtimoiy tarmoqda qabarga ko'zim tushgach... qo'ng'iroq qildim.

"O'zlar menga qo'ng'iroq qilishdi. Ko'p taddiqotlar yaratgan ekansiz, sizga akademik diplomni beramiz, deyishid. Ko'ngilbo'shlik qildimmi, surishtirib o'tirmay rozilik berdim va endi pushaymonim ichimda. Bu diplom uchun kattagina pul to'lashim kerak ekan. Nima uchun pul to'lashim sababini shunday tushuntirishdi: "Vohoga kelib-ketish, mehmonxonasi va ovqatlanishi xarajatlari uchun berasisiz. Axir, siz uchun azza-bazza olis yo'l bosib, shuncha xarajat qilib keldik". Nafaqada bo'lganim uchun bu mablag' menga o'g'irliq qilishini aytdim: "Oldindan shuni aytganingizda poytaxtga o'zim borardim-ku", dedim. Bunga ham bahona topishdi. "Bizlar keldik. Endi yana ikki-uch nomzod toping, shunda ozroq pul to'laysiz!" Nima qilay, yana ikki kishini topib berdim", deydi u afsuslangancha.

Suhbatdoshim diplomini hech kimga ko'satmagani, bundan uyalishi, xabarni esa o'sha tashkilot mutasaddilarining o'zlar ijtimoiy tarmoqlarga yoyganini ham eslatdi. Mana bir "akademik"ning holati!

...Ijodiy guruhlar da tez-tez shundaye 'lonlarga ko'zimiz tushadi: "Falon davlatda asarlarining chop qilinishini istaysizmi? Unday bo'lsa, ikki varaq hajmda she'rilar yoki hikoyalaringizni falon manzilga jo'nting!" E'londa, albatta, ijodiy ishlaringiz o'zga tilga o'g'irilishi va chop qilinishi uchun qancha miqdor pul to'lashningiz ham ko'satilgan bo'ladi. 20-30 nafer havasmandlar asari tarjimasidan iborat to'plamning keyin shu mamlakatda taqdimoti ham tashkil qilinadi. Taqdimota borish har bir ijodkorning o'z ishi, ya'i ni yo'lkira-yu boshqa xarajatlar o'z hisobidan. Unga taqdimota o'sha kitobdan ikki nusxa beriladi. (Chet mamlakatlardan birida shu taxlit chop qilingan "kitob taqdimoti" ga borib qaytgan ijodkor qarzlarini uzish uchun o'zi ham xoriga ishlashga ketganini bilaman).

Umuman, o'sha kitob necha nusxada chop etilgani, o'sha mamlakatdaqida abadiyot ixlosmandlariga qay darajada taqdim qilingani mavhumligicha qoladi. Xo'p, o'ttiz nafer pul to'lagan ijodkor olmistashta kitob oldi, deylik. Ottiz nafer muallif to'lagan pul miqdori o'tacha 7-8 million so'mga boradi. Bunday tarjimon haqgi chegirib tashlansa, kitob o'sha davlatdagagi biror xususiy nashriyotda ko'pi bilan yuz nusxada chop qilingani oydinlashadi.

Demak, uddaburon tarjimon "sopini o'zidan chiqqardi", shu bahonada to'plamga asarlar kiritilgan ijodkorlar hisobidan chet elga sayohat ham qilib keladi.

Ana shunday "jahongashta adiblar" orasida makktab o'quvchilari – havaskorlar ham borligi abadiyotimiz targ'ibotidan maqsad nima ekanligini bir qadar oydinlashtiradi. Ya'ni, tashkilotchi tarjimon manfaati bu yerda hamma narsadan ustun turadi.

Man, "o'zbek abadiyoti targ'iboti" bo'yicha innovatsion usul! Qoyilmisiz?



Eng afsuslanarlisi, qo'shni yoki Sharq mamlakatlarda shunday "Ilg'or usul"da chop qilinayotgan kitoblar, garchi nusxalarini sanoqli bo'lsa-da, xorijdaggi asl abadiyot muxlislarining milliy abadiyotimiz haqidagi taassurotini siyalashatsizmoqda. Abdulla Qodiriy kabi ulkan adiblari dunyoga yo'l ochgan mumtoz-u zamoniyi abadiyotimiz bugun "ishbilarnar tarjimonlar" havaskorligi darajasiga tushirib qo'yishmayaptimi?

Afsuski, shunday!

Hozirda arab hamda hind tillarida shu taxlit tarjima to'plamlar chiqarish uchun pul yig'ish avjiga chiqqan. To'g'ri, qanday bo'lsa-da abadiyotimiz u yoki bu ko'rinishda boshqa davlatlarga chiqishi e'tiborli holat. Bu jarayonga xorigi tillarini bir qadar o'zlashtirgan abadiyot ixlosmandlari bosh bo'lisyapti. Ammo ularning tarjimonlik bobidagi saviyasi qay darajada, degan savol o'chiq qolmoqda. Hozirda kompyuterda maxsus tarjima dasturlari borilagini eslatسا، tarjimonlarning aksariyati shu dasturga "xizmat buyurib", so'ng ustidan o'zi bilgan (fikrati yetgan) darajada tahrin qilib, to'plamlar chiqarmayapti, degan o'ya boradi odam.

So'nggi davrda "antologiya" so'zi rosa omalashadi. Chet davlatlarda chop qilinayotgan "hashar kitoblar"ning aksariga antologiya yorlig'i yopishtiriladi. Antologiya – abadiyotning ma'lum davri, ma'lum janrida yaratilgan eng sara asarlar to'plami. Zulfiya nomidagi davlat mukofotini olish uchun o'quvchilarning mahalliy nashriyotlarda shoshma-shosharlik bilan chop qilingan mashqolariga antologiya atamasiga yopishmaydi. "Innovatsion tarjimon"larga esa baribir...

Keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan o'zbek tilida chop etilgan "Turkiy abadiyot durdonalari" yuz jildlik majmuasini antologiyaning asl namunasini deyish mumkin. Qolaversa, TURKSOY xalqaro tashkiloti tomonidan turkiy davlatlar ijodkorlarining

sara asarlarini tarjima qilish, chop etish va taqdimotlarini o'tkazish an'anaga aylandiki, buni ham olqishlash kerak.

Bir asr ilgari millatni uyg'otish orzusida maydonga chiqqan, maktablar ochgan, yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborgan, iste'dodli yozarmalarnga ilk to'plamlari dunyo yuzini ko'rishlarida beminnat yordam qo'lini cho'zgan jadid bobolarimiz faoliyatidan ibrat olmog'imiz kerak. Ularning unvonlar, nishonlar ta'sis qilishgani, o'z faoliyatini rivojlantirish bahonasida turli diplomlar ulashgan haqida biror manbada o'qiganim yo'q. Qolaversa, bu kabi illatlar – nishonpazlik, soxta akademikklik ularning yetti uxlab tushlariha ham kirmagan.

...O'tgan hafta o'sha tanish jurnalist qo'ng'iroq qilib qoldi: "Xabaringiz bormi, anovilar yana murid oviga chiqishibdi. Nishon sotib oladiganlarni izlashyapti".

Indamidam. Nimadir degim keldi-yu, nari o'ylab-beri o'ylab tilimni tiydim.

Ro'zimboy HASAN,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

TAHRIRIYATDAN: ushbu maqolada bugun ko'pchilikni o'yantirayotgan jiddiy masala tilga olingan. Chindan ham, keyingi vaqlarda jamaatchilik asosida faoliyat ko'rsatadigan har xil mahalliy va xalqaro akademiyalari, uyushmalar paydo bo'lmoqda. Muallif ta'kidlaganidek, bizning ham bunga qarshiligidim yo'q. Biroq ana shu tashkilotlar faoliyatini tartibga solish hamda ularga a'zolik mezonlarini ko'rib chiqishning vaqt kelmadimikin?

Xo'sh, Adliya vazirligi va boshqa mutasaddi idoralarining bu boroda fikri qanday? Biz ularga ham minbar berishga tayyormiz.

O'ZBEK TILIM - O'Z TILIM

"VATANIY ISH..."

Jadid bobomiz Is'hoqxon Ibratning "Bizing yoshlar, albatta, boshqa tilini bilish uchun sa'yarakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir", degan so'zlarini bugun, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etgan. Darhaqiqat, o'z ona tilini cheksiz hurmat qilgan millatgina o'zgalarining ham tiliga hurmat wa ehtirom bilan qaraydi.



Galdagi suhbatochimiz, arman millatiga mansub yurdoshimiz, taniqli teleboshlovchi, iqtidorli aktrisa, qo'shiqchi va bloger Karina Gaziyan o'zining mumtoz qo'shilgalarimizni sevib kuylashi, o'zbekona chiqishlari bilan ko'pchilikning mehrini qozongan.

Men, O'zbekistonda tug'ilgan bo'lsam-da, bolaligimda bu tilni bilmasdim. Bugun esa o'zbek tilini katta qiziqish bilan o'rganish bilan birga, milliy kinolarni ko'rish, o'zbekcha kitoblarni mutolaa qilib va mumtoz qo'shilgalarini iroq etish orqali talaffuzim ustida ham ishlayapman. Shu asnoda o'zbek tilining nechog'li go'zel va jozibali til ekanligini, uning so'z boyligini yanada chuqurroq his qilyapman, – deydi u. – Men o'nlab kliplarda, sahna asarlarida o'zbek qizlariga xos milliylikni targ'ib etuvchi roller iroq etganim ko'pchilikka ayon. Men o'g'limning ham o'zbek tilini chuqurroq o'rganishiga yordam beryapman. Birgalikda o'zbekcha darslarini tayyorlaymiz. Mening fikrimcha, O'zbekistonda yashayotgan har bir shaxs, albatta, shu xalqning tilini o'rganishi, shu yurtning milliy qadriyatlarini hurmat qilishi kerak.

Zarnigor IBROHIMOVA yozib oldi.

TAQDIMOT



O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan an'anaviy tarzda nashr etib kelinayotgan "Birinchi kitobim" loyihasining navbatdagi seriyasi nashrdan chiqdi. O'n to'qqiz ijodkor tomonidan yozilgan 18 kitobni o'zida jamlagan to'plam turli yo'nalish va janrlarni qamrab olgani bilan ham ahamiyatlidir.

Kitoblarning asosiy qismini she'riyat tashkil etadi. Bibigul Abdiyeva, Burxon Rahmat, Durdona Bahodirova, Faxriyor Baxtiyorov, Mahliyo Karimova, Muattar Mamatkarimova, Muhammadali G'afforov, Sanjar Toshbekov, Shukrullo Sheraliyev, Suhrob Hamroyev kabi 10 nafer ijodkorning she'riy to'plamalari orasida chin ma'noda yangilik bo'lganlari, abadiyotimizga o'zgacha ruh va kayfiyat olib kirayotgani ko'pligi kishini quvontiradi. Nasr yo'lini tanlagan ijodkor yoshlar Charos Avazova, Farhod Eshon, Mavluda Samariddinova, Mahbuba Abdurahimova ijodida ham yangilik izlash, turli "izm'lardan xoli samimiy va sodda hikoyalarni yaratishga intilish kuchiligi seziladi.

YANGI YILGA

Ma'naviy targ'ibot shunchaki oyog'i yerdan uzilgan, umumiy, hamma biladigan gaplardan iborat masala emas. Uning turlarini odamlarning axborotni qanday yo'llar bilan qabul qilishidan kelib chiqib belgilaymiz:

a) vizuallar – axborotning katta qismini ko'rish orqali qabul qiluvchilar. Bular juda-juda ko'pchilikni tashkil etadi. Xalqimiz bekorga: "Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal", demaydi;

b) audiollar – axborotning asosiy qismini eshitish orqali qabul qiluvchilar;

v) kinestetiklar – axborotning katta qismini boshqa sezgilar, masalan, hid bilish, paypaslash va boshqalar hamda harakatlar orqali qabul qiluvchilar;

g) diskretlar – axborotni mantiqiylar fikr-mushohada, raqamlar, belgilari, mantiqiylar dalil-isbotlar orqali qabul qiluvchilar.

Albatta, bulardan faqat bittasiga daxldor kishilar kam topiladi. Odatda odamlar bularning baridan foydalaniadi. Faqt obyektiv va subyektiv shart-sharoitdan kelib chiqib, kimdir u, boshqa birov bu turni ko'proq ma'qul topadi.

Har qanday tasnidfa bo'lgani kabi, tabiyki, bu yerda ham nisbiylih mavjud. Sinkretik, ya'ni aralash turlar ham bor. Masalan, radio faqt eshitiladi, tasviriy san'at asarlari, fotosuvrillar, muzeuy eksponatlari faqat ko'iladi.

Lekin kino, televideuniye ko'sratuvlari, boshqar videomateriallari, teatr san'ati mahsulotlari, konsertlar ham ko'riladi, ham eshitiladi. Modomiki shunday ekan, ma'naviy targ'ibot bularning barchasidan birday foydalanishga majbur.

Yugoridagi to't turdan qay biriga kirishtidan qat'i nazar, quyidagi tizimlar ma'naviy targ'ibot bilan bevosita shug'ullanadi.

Bular:


a) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tizimi; b) madaniyat tizimi; d) ta'lim tizimlari; e) ommaviy axborot vositalari tizimi; f) nashriyotlar tizimi; g) mahalla tizimi; h) yoshlar tizimi; j) oila va xotin-qizlar tizimi; j) kasaba uyushmalar tizimi; k) diniy konfessiyalar tizimi; l) ijodiy tashkilotlar tizimlari; m) jismoniy madaniyat va sport tizimi; n) huquqni muhofaza qilish organlari tizimlari va hokazo.

O'zbekistonimizda ma'naviy targ'ibot bilan shug'ullanmaydigan biror tashkilot, muassasa, idora, korxona yo'q. Chunki Respublika Ma'naviyat kengashi mamlakatagi bu soha bo'yicha asosiy yo'halishlarni belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ana shu kengashning raisi hisoblanadi. Mamlakatimizdag'i barcha mintaqalar birinchi rahbarlari, ya'ni Qoraqalp'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari o'z mintaqaviy Ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisi hisoblanadi. Shuningdek, tuman va shaharlar hokimlari ham o'z hududiy ma'naviyat va ma'rifat kengashlari rahbarlar sifatida ma'naviy targ'ibot ishlarini boshqaradi.

Ma'naviy targ'ibot ta'sirchanligini oshirishga o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi. Uning ko'p-ko'p talab va shartlari, yo'l va yo'riglari bor. Ma'naviy targ'ibotchi o'zidagi axborotni, bir ilojini qilib tarqatib olsa, bo'ldi emas. Bu – masalaning bir tomoni. Lekin asosiy maqsadga erishgan-erishmagani shu axborotning targ'ibot qaratilgan omma vakillari tarafidan qanday o'zlashirilganiga qarab belgilanadi. Shuning uchun ma'naviy targ'ibotchi tinglovchilarning ong-tafakkuri barcha nozik jihatlariga hisobga oliga holda ish qilishiga majbur.

Kash taqozosi bilan tajriba sifatida atoqli qiziqchimiz Hojiboy Tojiboyning traktorchi va o'qituvchilar qiyosi asosidagi bir paytlar juda mashhu bo'lil ketgan chiqishining maqsadini ko'p yerlarda kishillardan so'raganman. Ishonasizmi, eksperiment ishtiroychilarning 80 foiziga yaqini: "Bu chiqishida qiziqchi trak-

TA'SIRCHAN TARG'IBOT ZARURATI



torchlari ulug'lagan", deb hisoblashini ma'lum qilishgan. Holbuki, Hojiboy Tojiboy o'z paytida: "Ey birodalar, qanday zamon bo'ldiki, o'qituvchidek muqaddas kasb egalarining mavqeysi, hatto, traktorchnarning mavqeiyidan ham past darajaga tushib ketsa, mamlakat va xalqning kelajagi nima bo'ladi?!" deb bong urgan emasmidi?

Mana, bugun taniqli qiziqchining orzulari amalga oshib, mamlakatimizda o'qituvchilar mavqeysi ortib boryapti, bu kasb egalarini, shuningdek, o'quchchi va talabalarni ham ta'limdan tashqari ishlarga jalb etish taqiqlandi. 2023-yil 30-aprelda o'tkazilan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz beishor qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'qituvchilarning jamiyatdagi maqomi haqida yangi 52-modda kiritildi.

Demak, ma'naviy targ'ibotda tepadan turib so'zlash yo'lli ketmaydi, xalq bilan uning yoniga tushib gaplashish kerak.

Ma'naviy targ'ibotning har qanday turida, avvalo, tushunchalar bilan ishlanadi. Busiz hech mumkin emas. Tushunchalar esa ikkiga bo'linadi: a) muayyan (konkret, aniq) tushunchalar – olma, nok; ruchka, qalam; samolyot, vertolyot, stol, stul; quvon, tarvuz kabilar; b) mavhum (abstrakt, noaniq) tushunchalar – imyon, vijdon; mo'min, musulmon; ma'naviyat, ma'rifat; g'oya, din, axloq kabilar.

Muayyan tushunchalarini qo'lli bilan ushab ko'rish, taroziga tortish, rangini aniqlash, hajmini o'lchash, qattiq yo suyuq modda ekanini bilib olish mumkin. Shuning uchun bunday tushunchalarga ta'rif berish osonroq.


Mavhum tushunchalarni anglash, ta'riflash uchun tasavvur kuchli bo'lishi lozim. Voiz nutqida ishlatayotgan katta-kichik, muayyan-mavhum har qanday tushunchani to'la anglab yetgan bo'lishi, ularning bir-biridan farqli va o'zaro o'xshash jihatlarini obdon ajrata olishi shart. Shuni ham unutmasislik kerakki, ma'naviy targ'ibotda aksaran mavhum tushunchalardan foydalaniadi.

Tushunchalar qamrovi jihatidan katta-kichikka bo'linadi. Masalan, "din" – katta tushuncha, "islom" undan ko'ra kichik tushuncha, ya'ni "islom" atamasi din tushunchasining ichiga kiradi. Buni xuddi "ota", "o'g'il", "nevara", "evara", "chevara", "pan-nevara" tushunchalari o'tasidagi bog'liqlik singari anglash kerak.

Afsuski, ko'p ma'naviy targ'ibotchilar nutqida amalda "parlament", "hukumat" va "sud" kabi qonun chiqaruvchi, ijob etuvchi va sud hokimiyatini o'z ichiga qamrab oladigan "davlat" so'zi o'rniga ham "hukumat" atamasi qo'llab ketilaveradi. Hattoki, ba'zan ommaviy axborot vositalarida ham "hukumat mukofotlari" degan mutlaqo xato istilohga duch kelamiz. Holbuki, O'zbekiston Respublikasida davlat mukofotlari joriy etilgan, ular davlat rahbari, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan beriladi.

Fondagi "induksiya" va "deduksiya" tushunchalari ana shu katta-kichiklikka asoslanadi. Sodda qilib aytganda, "induksiya" kichik (qismning bo'lagi) hisoblangan tushunchalar tahlii orqali katta tushunchaga – xulosaga kelish, "deduksiya" esa buning teskarisi – katta tushunchalar tahlii orqali kichik tushunchalarni aniqlashirish. "Induksiya"ni o'tkir uchi pastga qaratilgan, asosi esa tepheda bo'lgan uchburchak tarzida, "deduksiya"ni esa asosi pastda bo'lib,

o'tkir uchi tepaga qaragan uchburchak shaklida tasavvur qilish mumkin:



Butun dunyoda so'z orgali ta'sir etishda til mahoratiga birlamchi'e'ibor beriladi. Qadimda ham shunday qilingan, hozir ham talab shu, bundan keyin ham shunday bo'ladi. Tabiiylik – tilga e'tiboring birlamchi talabalaridan. Tabiiylikdan samimiylik kelib chiqadi. Ma'ruzachining tili imkon qadar adabiy tilga bo'yunsuni va xalqqa tushunarli va yaqin bo'lishi lozim. Tilni yaxshi bilmay turib bu tilda samarali ma'naviy targ'ibot olib borishning aslo iloji yo'q.

Tarbiyaga yo'naltirilgan har qanday xatti-harakat, qadam, vosita, dars, tadbir, marosim, o'git, tizim va hokazoda maqsad aniq-tiniq bo'lishi, ya'hi tarbiyaga masul har bir shaxsda aynan tarbiyalanuvchi ongida qanday (siyosiyimi, iqtisodiyimi, diniyimi, huquqiyimi, mafkuriyimi, demokratikmi, ekologikmi, tibbiyimi...) o'zgarish kutilayotgani oldindan o'ylanishi va shu ichki qat'iy reja asosida ish olib borilishi lozim.

"Sabr", "oyat", "sura", "pora" ("juzy"), "Qur'on", "vahiy", "oxirat", "islom", "din", "Alloh" tartibida kichik tushunchadan katta tushunchaga qarab ("induksiya") yo'lli bilan borilyapti.

"Deduksiya"ga 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "Umumiy holatdan juz'iy xulosaga chiqargan holda muhokama yurishit; umumiy holatdan juz'iy natija chiqarish; ziddi induksiya"

(1-jild. – Toshkent: 2006. – B. 591), tarzida izoh berilib, so'zlashning lotincha "deductio" – "payqab olish", "xulosaga chiqarish" so'z birikmalaridan olingani, mantiq ilmiga aloqadorligi ham qayd etilgan.

(1-jild. – Toshkent: 2006. – B. 591), tarzida izoh berilib, so'zlashning lotincha "deductio" – "payqab olish", "xulosaga chiqarish" so'z birikmalaridan olingani, mantiq ilmiga aloqadorligi ham qayd etilgan.

"Alloh", "din", "islom", "oxirat", "vahiy", "Qur'on", "pora" ("juzy"), "sura", "oyat", "sabr" tartibida esa katta tushunchadan kichik tushunchaga qarab ("deduksiya") yo'lli bilan borilyapti.

Ma'naviy targ'ibotchi ma'ruza shayx qamrovi jihatidan katta-kichikka bo'linadi. Masalan, "din" – katta tushuncha, "islom" undan ko'ra kichik tushuncha, ya'ni "islom" atamasi din tushunchasining ichiga kiradi. Buni xuddi "ota", "o'g'il", "nevara", "evara", "chevara", "pan-nevara" tushunchalari o'tasidagi bog'liqlik singari anglash kerak.

Ma'naviy targ'ibotchi ma'ruza shayx qamrovi jihatidan katta-kichikka bo'linadi. Masalan, "din" – katta tushuncha, "islom" undan ko'ra kichik tushuncha, ya'ni "islom" atamasi din tushunchasining ichiga kiradi. Buni xuddi "ota", "o'g'il", "nevara", "evara", "chevara", "pan-nevara" tushunchalari o'tasidagi bog'liqlik singari anglash kerak.

Ma'naviy targ'ibotchi ma'ruza shayx qamrovi jihatidan katta-kichikka bo'linadi. Masalan, "din" – katta tushuncha, "islom" undan ko'ra kichik tushuncha, ya'ni "islom" atamasi din tushunchasining ichiga kiradi. Buni xuddi "ota", "o'g'il", "nevara", "evara", "chevara", "pan-nevara" tushunchalari o'tasidagi bog'liqlik singari anglash kerak.

Biz o'zimiz ishlatayotgan tushunchalarimizni to'la anglarmiz. Lekin endi axborotni qabul qilayotgan

kerak", dedi suhbatdoshim. Sababini surishtirsam: "Abu Dabi" degan shahar bor-kul" dedi.

Bu talablar ma'ruzachi har qancha og'zaki targ'ibot qilayotgan bo'lsa ham, bu chiqishiga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rishi, nutqining xomaki rejasini obdon pisshitib, fikrlarini ixcham tezislari tarzida yozib olishi, kerakli ma'lumotlar bilan qurollanib, so'ng minbarga chiqishini qozimgilini ko'satadi.

Tarbiyaga yo'naltirilgan har qanday xatti-harakat, qadam, vosita, dars, tadbir, marosim, o'git, tizim va hokazoda maqsadani aniq-tiniq bo'lishi, ya'hi tarbiyaga masul har bir qishining minbarda o'zimiz amal qilmaydigan so'zni qapirmasligi lozim. Mabod, gapirib, amal qilmayotgan bo'l-sak, uni xalqdan yashirishning hech iloji yo'q. Shuning uchun imkon qadar bugun haqida, zamон bilan bog'liq gaplarni gapirishimiz zarur. Bugunning siyosatini bilmay turib esa zamон talabi darajasida ma'ruza tayyorlashning hech imkon yo'q.

Xoja Hofiz Sheroyzi (XIV asr)ning bir bayti shunday jaranglaydi:

Voizon kin qilva bar
mehrob-u minbar mekunand,
Chun ba xilvat meravand,
on kori digar mekunand.

Mazmuni: "Vozilar mehrob-u minbarda jilva qilishadi, lekin xilvatga o'ganlarida esa boshqa ish bilan mashg'ui bo'lishadi".

Ko'pchilikning shakllangan tasavvurlariga butunlay teskari, ya'ni ulardan yuz foiz yoxud bir yuz sakson gradus farq qiladigan fikri ilgari surishda juda ehtiyothona yo'l tutishga to'g'ri keladi. Ifodal qilib aytganda, bitta yangi mulohazani o'taga tashlash uchun avval to'q-qizta eski gapni keltirish zarur. Chunki yangilikning qabul qilinishi – doimo og'ir kechadigan jarayon.

Endi yana bir masala o'rtaq tushadi, bu – tinglovchilarning kimlardan iborat ekani, ularning ong-tasavvurlari darajasi.

... Bir amri ma'rufda ma'ruzachi me'rej haqida uzoq gapirdi.

– Voiz nima haqda gapirdi, men yaxshi angololmay goldim? "Me'rej" degandek bo'dimi? Nima o'zi – me'rej? – deb so'radim.

Avval me'rej o'zi nimaligini obdon tushuntirmay turib ham bu haqda shuncha ma'ruza qilish mumkinmi? Demak, imom, qariybki, o'ziga o'zi gapirdi. Bunday ma'ruzaning ta'sirchanligi yo'q darajada. Bunday ma'ruzaning kimga keragi bor?

Voizning hech mahalda o'zini akademik, o'tirgan somelarni esa "ukademik" sanashga haqqi yo'q.

Dunya eng qiyin ishlardan biri – bir kishining miyasida pishagan fikri boshqalar ongiga o'tkazish. Faqat bosh talab shuki, badiiy-timsoliy qilib aytiladigan bo'lsa, qo'shning bog'idadagi mevalardan tatib ko'rish uchun avval qo'shni bilan birga yetaklashib, o'sha bog'ga kirib olish kerak, shundagina mevaga qo'l yetishi uchun imkon paydo bo'ladi. Aks holda, bog'ning devorlaridan narida turbuchozdan ko'z qamashtirib yotgan mevalar haqida shirin orzguna qilamiz, xolos.

Ma'naviy targ'ibotda, albatta, jamoa vakillaridan tushgan savol-larga javob berishga to'g'ri keladi. Javob hamisha amal qilish mumkin bo'lgan tarzda bayon etilishi, buning uchun falsafaning makon va zamон degen tushunchalarini aslo yoddan chiqarmaslik, ya'ni ta'sirchanlikka erishish uchun qaysi jamiyatda va qanday davrda yashayotganimizni har taraflama mushohada qilgan holda ish ko'rish zarur bo'ladi.

Modomiki, mukammal shaxs tarbiyasi jamiyatimizning asl maqsadiga aylangan ekan, tarbiyani kompleks, ya'ni har tomonloma uyg'un tarzda olib borish – zamон talabi. Masalani shu tarzda qo'ysakina, jamiyatni o'zgartira olamiz. Jamiyatni o'zgartirmasak, hayot mamlakat va xalq oldiga qo'yan maqsadga yetish – huquqiy demokratik tuzumni shakllantirish, ilg'or davlatlar safiga qo'shilish mushuk kechadi.

Og'zaki targ'ibotda, radio va televideuniye chiqishlari ovoz – odamlarni ishontirishning eng asosiy quroli. Samimiylarga aynan ma'ruzachining shakllangan tasavvurlariga yetishishga mahorat orqali erishiladi. Abdurahmon Jomiy (XV asr) huzurlarida birov juda baqir-chaqir bilan, ovozini o'ta darajada balandlatib she'r o'qigan ekan, piri komil unga: "Taqsim, she'r o'qurmusiz yoxud kishi qo'rqturmusiz?" deya tanben bergan ekanlar...

Alisher Navoiy (XV asr) bir buyuk zotining mavzumizga bevosita daxldor zo'r fikrini keltiradi: "Voiz ularki, uning suhbatiga boy kirma, kambag' alligini his etib chiqsin, kambag' al kirma, boyib chiqsin". Mazmuni shuki, o'zini shu voizdan ko'ra bilimliroqman, deb hisoblagan odam agar uning ma'rurasini eshitsa, fikridan qaytib, ko'tarilgan mavzu bo'yicha voizchaliq bilimli emasligini (demak, kambag' alligini) tan olsin, bordi-yu, o'zini voizga nisbatan bilims

MILLAT FIDYOYLARI

ZAMON TEGRIMONIDAN OMON CHIQQAN ZAMONBOYEV



Muhammad Rasul Zamboev

1918-yilning fevralida Turkiston Muxtoriyati Qo'qonda qizil qo'shin va arman dashnoqlari qo'lli bilan qonga botirilgach, jadidilik harakatida bo'linish yuz beradi. Muxtoriyat rahbarlari qatag'onga uchrab, bir qismi xoriga chiqiq ketadi. Va o'sha yerdan turib siyosiy kurashni davom ettirishga urinadi. Bir qismi esa jadidlikning g'oyaviy asosi bo'lgan ma'rifat tarqatish ishlari bilan cheklanadi. Yangi maktablar oshib, unda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, matbuot vositasida elnang fikrini ochish ishlarini davom ettiradi.

Shuningdek, jadidlar, xususan, ularning kenja avlodni ichida vaziyatdan har qanday yo'l bilan bo'sin foydalanishi, er-yurda adolat barcharor bo'lishi, mehnatkash xalqning bo'ynidagi istibdod zanjirini ozgina bo'sin bo'shatishni niyat qilganlar ham bor edi. Ular bosh g'oya – istiqloq orzusi boy berilgan bo'sa ham, mittatni asrab qolish zarur, degan fikra bo'lishgan. Buning uchun sharoit imkon bergan barcha vositalardan foydalanishga uringan. Jumladan, sho're tuzumi beraq imkoniyatlardan ham.


Jadidarning shunday yosh avlodni vakillaridan biri Muhammad Rasul Zamboevyed edi.

U 1896-yil hozirgi Qozog'istoning Turkiston viloyati, Iqon qishlog'iда dunyoga kelgan. Otasi savdo bilan shug'ullanib, farzandi Muhammad Rasulning ilm olishiga alohida e'tibor beradi. U, dastlab, Igonda savod chiqardi, rus-tuzem maktabida o'qidi. Keyin tahsilni Turkistonda, ilg'or fikrli sanoatchi boy Saidnosir Mirjalilov ochgan jadid maktabida davom ettirdi.

Saidnosirboy o'quvchilar orasidagi fikri tiyrak, ko'ngli beg'ubor, ilmga tirishqoq, eng muhim, maqsadidan chekinmaydigan yosh yigitchaning kengroq davragna chiqishini xohlaydi va uni Toshkentga, Munavar qori Abdurashidxonovning "Namuna" maktabiga yuboradi. Muhammad Rasul Toshkentga kelganida shahar alg'ov-dalg'ov ichida edi. Rusiyada boshlangan 1917-yil – fevral inqilobi mazlumlar fikratida to'ntarish yasagan, hamma yerda "Hurriyat, hurriyat!" degan gapso'z eshitilardi. Yosh yigitcha o'qish qolib, shahardagi siyosiy kurashlarga sho'ng'ib ketadi. U jadid ustozlari qoshida kambarbasta bo'lib turadi.

Millat fidoyilar qo'lib ta'lim olgan Muhammad Rasul hamfikrlari kabi istiqloq orzusi bilan yashar edi. Turkiston Muxtoriyati e'lon qilingach, u Qo'qon shahriga borib, Saidnosir Mirjalilov yonida Muxtoriyat hukumatini xizmatida bo'ladı. 1918-yil fevralida qizil armiya va arman dashnoqlar tomonidan Muxtoriyat qonga botirilgach, mislsiz qirg'inlardan omom chiqqan Muhammad Rasul o'zi tug'ilib o'sgan Turkiston shahriga qaytishga majbur bo'ladı. Lekin bu yerda ham siyosiy kurashlardan uzoqlashmaydi. Qozog'iston mustaqilligi uchun kurash boshlagani "Alash O'rda" partiyasiga xayriyohlik qilib, bir muddat uning saflarida ham bo'ladı. Biroq istiqloq orzusini qozoq zaminida ham qonga botiriladi.

Oradagi salkam to'qson yillik vaqt masofasi



Muhammad Rasul Zamboev 1924-27-yillarda davomida Chimgent shahar xalq sudi, 1927-28-yillarda Turkiston shahrida sudya vazifasida ishlagan. 1928-29-yillarda Toshkent yuridik texnikumida o'qydi. 1929-30-yillarda yana Turkiston shahri xalq sudida faoliyat yuritdi.

U 1935-1937-yillarda davomida mazkur lavozimda adolatri ta'minlash, qonuniylik va huquq madaniyatni yuksaltirish yo'lida samarali ish olib bordi. Afsuski, razolat va zulmga asoslangan jamiyatda uning bu ezgu harakati yana qadr topmadı. Aksincha, 1937-yil 29-iyulda mamlakatning markaziy nashri bo'lgan "Qizil O'zbekiston" gazetasining 166-sonica maxfiy "N.Sh." imzosi bilan "Olyi suddagi saxiyalar" nomli xabar bosildi. Unda yozilishicha, go'yoki Toshkentdagi 21-do'kon mudiri Xalikovning faoliyati tekshirilgan va natijada 4416 so'mlik kamomad aniqlangan. Aybdor 2650 so'mni to'lagan holda Olyi sudga shikoyat yozgan. Olyi sudda Muhammedov, Abdurahmonov, Zamboev ishiň o'rganib, uni oqlab chiqqani keskin tanqid qilinadi. Vaholanki, sudda Xalikovning g'arazli maqsadدا nohaq ayblangani o'z isbotini topgan edi.

Ikkramov rajonidagi "Akmal" selposinsoni 21-nci magazin mudiri Xaliquv 4.416 sonmi rasstrat qilgani ucun crajni cavabgarlikka tartilib. Ikramov ra-jonidagi 85-nchi bolum xalq su-damitanidan 3 jil qamaqa hukm qilinagan edi. Xaliquv ju-qarida attilgan puhi rastrat qilganligiga ijaror aolua undan 2650 sonmini qajtarib tolagan ham edi.

Xaliquv sud hukmidan kejin Ozbekistan Alij sudiga czazani bir az Jenillatiñi illitmas qiliñ ariza bergan. Ozbekistan Alij sudinin Muhammadajev, Abdurahmonov, Zamanaajev, Salihovlarni isarat skajat kollegiasi Xaliquvning isini tek-siris kormaj, 85-nchi bolum xalq sudinin hukmini nekar qildi.

Camaat mulkiga xjanat qilqon Xaliquv sundaj kutul-magan sahilikkä qandaj min-natarcilik bildiriş uculn hajran.

N. S.

Biroq 1929-yildan e'tiboran unga nisbatan turli fitna-fasod avj ola boshlaydi. Bu ishda sovet matbuoti, ayniqsa, jorbozlik ko'rsatadi. Jumladan, "Yosh leninchi" gazetasining 1929-yil 4-apreldagi 26-sonida "Qurban" degan kimsaning "Yuzlardagi pardani ochish kerak" xabari bosildi.

Unda Chimgent sudyasi Zamboevni kollektivlashtirishga xalaqit berish va iqonlik quloglarni himoya qilishda abyplaydi. Bu bilan cheklanmasdan, uning 1919-20-yillarda Saidnosir Mirjalilovning "dumi" bo'lgani, O'rta Osiyo yuridik texnikumida o'qib yuran payti partiyanidan haydalGAN kabi holatlarga sha'ma qilib o'tadi. Oradan ko'p o'tmay, Muhammad Rasul Zamboev yana bir bo'hton – poroxo'rikaybi bilan GPU tomonidan hibsga olinib, 9 oy mobaynida qamoqda saqlanadi. Hartugul, o'zining aksilqılıbini ozodlikka chiqadi.

Lekin ta'qib va tahidilarning oxiri ko'rmasdi. Oqibatda, ishani tashlab, Toshkentga ko'chib kelishga majbur bo'ladı. Biroq g'anmlar uni bu yerda ham tinch qo'ymagach, Andijonga ketib, dushmanlari nigohidan chetqorda, turi idoralarida halol va shijoat bilan mehnat qiladi.

Oradagi salkam to'qson yillik vaqt masofasi

Muhammad Rasul Zamboev qaysi aybirlari uchun bunday qattol dushman orttirdi ekan, degan savolga javob topishga imkon bermaydi. Ammo el ko'zidan chetda, kichik idoralarida mehnat qilib yurgan Muhammad Rasul ustidan chaquvlar, ig'volar davom etgani, "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1934-yil 15-oktyabr sonida "Fisq-fujurga sodiq" sarlavhali maqolada yana asosiy nishonga aylangani ma'lum.

Mazkr maqola chop etilganidan so'ng, oradan yarim yil ham o'tmay, 1935-yil aprelda Muhammad Rasul Zamboevning aysizligi to'liq isbot topib, Andijondan chaqirtilib olinadi va O'zbekiston Bosh prokurorining yordamchisi etib tayinlanadi. Aks holda o'sha davrning taomiliga ko'ra, gazetada "urilgan" odam qamalib yo'q bo'lib ketishi kerak edi.

U 1935-1937-yillarda davomida mazkur lavozimda adolatri ta'minlash, qonuniylik va huquq madaniyatni yuksaltirish yo'lida samarali ish olib bordi. Afsuski, razolat va zulmga asoslangan jamiyatda uning bu ezgu harakati yana qadr topmadı. Aksincha, 1937-yil 29-iyulda mamlakatning markaziy nashri bo'lgan "Qizil O'zbekiston" gazetasining 166-sonica maxfiy "N.Sh." imzosi bilan "Olyi suddagi saxiyalar" nomli xabar bosildi. Unda yozilishicha, go'yoki Toshkentdagi 21-do'kon mudiri Xalikovning faoliyati tekshirilgan va natijada 4416 so'mlik kamomad aniqlangan. Aybdor 2650 so'mni to'lagan holda Olyi sudga shikoyat yozgan. Olyi sudda Muhammedov, Abdurahmonov, Zamboev ishiň o'rganib, uni oqlab chiqqani keskin tanqid qilinadi. Vaholanki, sudda Xalikovning g'arazli maqsadda nohaq ayblangani o'z isbotini topgan edi.

1937-yil 17-sentyabrdan bo'lgan boshlang'ich partiya tashkiloti majlisiga chaqirilgan Muhammad Rasul Zamboev NKVD tomonidan qamoqqa olingan Sultonbek Xo'janov va Karim Abdullayevlar bilan tanish bo'lgan, deb partiyanidan haydaladi. 1937-yil 10-oktyabrdan Toshkent shahar, Kirov tumani partiya qo'mitasida yana Zamboevning masalasi ko'tariladi va uning o'tmishi, Saidnosir Mirjalilov oilasiga kuyov bo'lgani aksilqılıbini faoliyat sifatida baholanib, Dalayan tomonidan hujjalashtiriladi. Shundan so'ng NKVD xufyalar yana ham faollashib, uning aksilfaoliyati haqida chaquvlar yetkaza boshlaydi.

1938-yil 17-yanvar kuni tergovchi Berezikov Muhammad Rasul Zamboevning sobiq "Alash o'rda" ziarasi, 1931-34-yillarda aksilqılıbini tashkilotga a'zo bo'lgan, deb O'zSSR JKning 60-, 67-moddalari bekor qilinib, jinoi ish tugatiladi. Shu kunning o'zida Rasul Zamboev Toshkent turmasidan ozod qilinadi.

Darhaqiqat, 1922-yil Toshkentga kelib,

"Ko'mak"da ilm o'lgan turkistonlik yoshlar

orasidan keyinchalik yirik olimlar, taniqli

rahbarlar yetishib chiqdi. Jumladan, Karim

Abdullayev O'zSSR Sog'liqni saqlash

xalq komissari, Safo Saidmurodov, Beglar

Jo'nayevlar SAGUda dars berdi. Biroq

birortasi o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlariga

erisha olmadı. Yana ham aniqrog'i, qattol



"Alash o'rda" partiyasi a'zolari.

var kuni bitilgan order asosida Toshkent shahri, Xoroshin ko'chasi 19-uya tintuv o'tkazilib, hibsga olinadi. Shu kuni to'dirilgan shaxsisi yordamchasi uning oila zo'zolari sifatida turmush o'rtoqi Zuhra Aymetova (30 yosh), farzandlari Oyisha (13 yosh), Adolat (11 yosh), Erkin (9 yosh) va Po'lot (2 yosh)larning nomlari qayd etilgan.

1938-yil 28-fevral kuni so'roqda Zamboev qo'yilayotgan ayblovlarning barchasi

tuhmat, hech qanday aksilqılıbini tashkilot mavjud emas, deydi. Biroq uzoq davom etgan jismoniy qynoqlar va ruhiyah qaytashlar ortidan 1938-yil 17-19-mart sanasi bilan yozuv mashinkasida bitilgan bir necha varaqdan iborat so'roq bayonnomalari imzolashga majbur bo'ladı. Unda 1922-yil o'zi bilan Toshkentga kelib o'qigan yigitlarning barchasi qulqoq qilingan boy va qozilarning bolalar bo'lgani, "Turkiston" savdo shirkati boshliqlari Saidnosir Mirjalilov, Mirzarahim va Abduvahhab Otabayevlar asosan "bosmachilar"ni kiyim-kechak, ozuqa, otlarini yem bilan ta'minlashga harakat qilgani, sovetlarga qarshi aksilqılıbini tashkilotga O'zbekistonidan Akmal ikromov, Fayzulla Xo'jayev, Qozog'istonidan Qulumbetov, Qirg'izistonidan O'zbekbekov, Turkmanistondan Aytakov, Tojikistondan Abdulla Rahimboyev kabirinchi rahbarlar a'zo bo'lganini, o'zining 1935-37-yillarda prokuror yordamchiliq vaqtida amalga oshirgan aksilqılıbini faoliyatini "tan oladi". (Albatta, keyingi so'roqlarda yuqorida qo'sratmalarini rad etadi.)

Muhammad Rasul Zamboevning bo'ynidagi sirtmoq mahkam tortilgan, uning qaysi kuni otishilini belgilashgina qolgan edi.

Biroq uning baxtila shu vaqtarda istiboddod markazi bo'lmish Moskva vaqidiyot o'zgarib qoladi. NKVD komissari Yejov ishda olinadi. Hali oxiriga yetkazilmagan ko'pgina siyosiy ayblovlar bo'yicha jinoi ishlar to'xtatib qo'yildi.

1939-yil 11-iyulda vaziyat o'zgarganini ang-lagan Zamboev O'zSSR IIXK nomiga ariza yozib, o'zining 1938-yil yanvardan hibsdan bo'lib, 1939-yil 19-mayda ish yakunlanganiga qaramay, qismatining hamon nomalumligini, tergov noqonuny o'tkazilganidan norozi ekanni yozadi. Shundan so'ng uning ishi qaytadan o'rganishga topshiriladi.

1939-yil 23-avgustda O'zSSR IIXK o'rinosi Boyko imzosi bilan tayyorlangan qarorda Zamboev ishi o'rganilgan, ayblovlar isboti topmagan, berilgan ko'sratmalar da'llillanmagani uchun O'zSSR JKning 60-, 67-moddalari bekor qilinib, jinoi ish tugatiladi. Shu kunning o'zida Rasul Zamboev Toshkent turmasidan ozod qilinadi.

Darhaqiqat, 1922-yil Toshkentga kelib, "Ko'mak"da ilm o'lgan turkistonlik yoshlar orasidan keyinchalik yirik olimlar, taniqli rahbarlar yetishib chiqdi. Jumladan, Karim Abdullayev O'zSSR Sog'liqni saqlash xalq komissari, Safo Saidmurodov, Beglar Jo'nayevlar SAGUda dars berdi. Biroq birortasi o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlariga erisha olmadı. Yana ham aniqrog'i, qattol

Bahrom IRZAYEV,
Qatag'on qurbanlari xotirasida davlat
muzeysi bosh ilmiy xodimi

voqealardan hisoblanadi. Bu ezgu ishlari 2025-yilda ham jadallik bilan davom etajak.

Muhtaram yurtoshlar, fan, san'at, abdiyot va milliy tariximizning jonkuyar ixlosmandlari!

Man, yana bir yangi yilni ezgu ishlari bilan qarshilab turibmiz. Ortida qolgan 2024-yil yurtimiz tarixida zarhal harflar bilan yozishga arzigulik voqealarga boy bo'ldi.

Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 19-iyundagi "Siyosiy qatag'on qur-

XOTIRA AZIZ



(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Zaki Sattarov – 1904-yilda tug'ilgan. Millati tatar. 1928-yil 25-apreldan 1929-yil 1-iyuligacha Kattaqo'rg'ondagi Respublika 1-isolyatorida o'quv tarbiyavi bo'lim mudiri, Kattaqo'rg'on rayon qishloq xo'jaligi kredit shirkati raisi, 1930–1932-yillarda Mirbozordara Naripay rayon ko'kolxolar soyusu raisi, 1932-yil dekabrigacha Kattaqo'rg'on rayoni shirxoyat qabul qilish byurosini mudiri, 1932-yil 8-dekabrdan 1933-yil oktyabrgacha "Kolxoziyo'li" gazetasini tahririyating Andijon va Asaka shaharlaridagi maxsus muxbiri, 1933-yil 1-oktyabrdan 1934-yil 1-oktyabrgacha Marhamat rayonidagi "Stalinchilar ovozi" gazetasini muharriri, MTS siyosiy bo'lim boshlig'i, rayyiroq'om raisi, 1934-yil 1-oktyabrdan 1937-yil 28-martgacha Samargandagi "Lenin yo'lli" gazetasini mas'ul muharriri vazifalarida qizmat qilgan. Shaxsiy varaqasida turk, rus, qozoq, o'zbek, tatar tillarini bilishi qayd etilgan. 1937-yil 27-mayda partiyaviy hushyorikni susaytingani, muharrirligida gazeta sahifalarida jadidilik harakati haqida maqola va xabarlar berganlikda ayblanib, unga qat'iy hayfsan e'lon qilingan. SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 13-oktyabrdagi yig'ilishiда Zaki Qiyovich Sattarov otuvuga hukm qilingan, hukm o'sha kuni ijo etilgan.

Fayzi Xodi Zarif – 1895-yilda tug'ilgan. Otasi diniy maktabda o'quvchi va masjidda imom bo'lgan. 7-8 yoshida otadan judo bo'lib, ona qaramog'iда qol

TOMOSHOG'A BORMOQ VA TOMOSHO BO'LMASLIQ ZIKRIDA



Ey, farzand, bu kun archa bayram bahonayi sabab senga tomosho ba uning madaniyatni va zavq-u zarofati va shavq-u sharofati va taft-u tarovati va husn-u halovat xususinda bir shingil nasihat bor. Magar ushbu pandalarim bir qulog'ingdin kirib, iikkinchisidan chiqar bo'lسا, fahm-u farosating ham zehn-u zakovating ham xulq-u hamiyating qasriga falokat bor.

Eng avvalo, tomosho tanlashni bilg'il. Bilmasang, ahli donishlardan so'rg'il. Qulogni batang qilg'uchi, fe'l-u xo'yni satang qilg'uvchi, o'tkir aqlni zang qilg'uvchi, tafakkur ko'zini chang va hamyonni tang qilg'uvchi "jinlar bazm'din yiroq turg'il. Qaysiki tomoshogohiga borsang, o'yun avvalida g'oyibdan bir sado kelg'ay: "Aziz-u muhtaram tomoshabin, tomosho zalinda ispirli ichimlik ichmak, nos va tamaki chekmak, yo'laklarni ilos qilmaq, kurash tushmak, mushtashib yoqavayron bo'lmak, eshakmindi o'ynashu va misiqasiz raqs tushmak qat'yan man etiladir!" San bu taqidin minba'a ajablanub, bu zalg'a qanday yovvoyilar jamuljam bo'lg'an erkan deb yoqangini axtarmag'il. Bular Alimi, Isoqdamni qolg'an gaplar.

Ey, farzand, teotga borar bo'sang. Behbudiy hazratning "Teot bu – ibratxonadur" deyilmish naqli dasturi amaling bo'sun. Yoddinga tutg'il, san tomosho zalida akt'o emassan, hammani o'zinga qaratishdin tiylig'il. Odmi kiyin, qulay va loyiq libosda bo'lg'il. Borishdan burun qo'ilajak asar to'g'risinda, muallifi haqinda va boshqa ijodkorlar xususinda o'qub, tafakkur etg'il. Dabburustdan borsang, teot tomnidin "muborak" boshingga tarasha tushmasun, deyman. Angrayib qolmag'il, deyman. Borar bo'sang, gulshanda guldek, bog'da g'unchadek go'zal o'trig'il.

Bayt:

"Magic city"da yurmag'il
oq saqichni hubob aylab,

*Ham masxara bo'limg'aysan,
zo'ntigingni rubob aylab.*

Ey, farzandi arjumandim, qorin-qursog'i uya toldirib, nafs-u xirs-u havasni ko'cha-ko'yda o'dirib borg'il. "To'ya borsang, to'yb bor, yomonliging qo'yib bor, yamoq to'ning kiyib bor", degan naq-u nasihat bor. Ore rost so'z ushbuskim, teot ham bamisolari to'yxona. Mehmonga borar bo'sang, o'zingni bir qadar sipa tutarsan, ibratxonada esa ming chandon halim bo'lg'il. Borgan xonadonginda hech vaqt saqich chay-namisan? Ani mezon uyining kursi-larig'a yopishdirib qo'yarmisan? O'rindilariq'a beababilik birla "M + A = S" deya chizib ketarmisan? Mezbon gapirganda luqma tashlarmisan? O'zingdin har turlik chiqindi goldirmarmish?

Ey, farzand, konsergta borar bo'sang, o'yunching xironmag'i esh bo'lub, novozanda-yu sozandaga xesh bo'lub, xonandaga pesh bo'lub (pesh – xofiz ahlining jargon so'zi bo'lub, ustazoda san'atkorma'nosini bildiradi, –izoh bizzdan)

xushtagningni jo'rt etmag'il. Harchand yangi olg'an ersang-da, tilponingi san'atkorg'a peshlamag'il. Fanorchi ota emassansi, kunduzi chiroq yoqib o'zingga farosat istasang. Yaratganga beedad shukurlar bo'sinkim, ahli sahaning o'z fanorlari bor. Kimsasi Xudoybergan Devonovg'a shogirdi mutlaq bo'sang ham o'zgalarining ma'naviy mulkini tasvirg'a olmag'il, tasmag'a solmag'il. Zotan, mulfuruxsatiga tuyassalar mundin mustasno-

g'usi yangraydirg'on, chigal-chigal, chuvalang-chuvalang karnay-surnaylar na'rata tortadir'on, chittakdayin, chug'urchuqdayin, ta'bri joiz bo'lsa, chigirkadaiy pariyyashlar belozim likillarydung'on tomosholarg'a (18+) murg'ak farzandi arjumandini hargiz olib bormag'il. Iloyo, mundin aning ko'z-u ko'ngli, qulog'u zehni azyiat topmasun. Norasida ko'rarmanlar uchun maxsus aql-u hushig'a xush yoqadig'an tomoshogohlar bo, shularg'a oborg'il.

Ey, farzand, kinog'a borsang, harchand hamrohangning oyod-qo'li, bilag'-u kuragi uyushib turgan bo'lsada, zinhor-bazinhor qutlug' dargohda uqalab qo'ymag'il. Ola nazarlardan bo'limg'il, o'zingni tiyং'il. Saning be-abab barmoqlarining nozuk yelkalari, to'iqin-to'iqin sochlari, oydekkurashon, marmar kabi silliq, ipakdayin mayin, ukpar misol toza, qor yanglig' oppoq, marvarid singari bejirim yuzlari uzra sirg'almasun va ham sovuqda yorilg'an lablarining

aning ilkida sayr etmoqqa hargiz jur'a yalamasun. Yana shuni yodda tutg'ilikm, kino pardasi tushg'anda, hayo va ibo, noz-u istig'no pardalarini ko'tarilmasun! Bori azm-u shijoatingni chimidiq pardasi ortig'a yashirg'il.

Ey, farzandi arjumandim, har qaysi tomosho salig'a kirarda "Gardero'b" atalmish bir maxsus xonaqo hoizitur. Anda hozir-u nozir xizmatchig'a har qancha qimmat bo'lmashun, sirma-yu pochapostining, tug'ilmag'an qo'zi tersidi ishlang'an mo'ydor telpaving, Qorako'l barxanlarining tuzini yelag'an chuvalang qo'chqor terisini oshlab tikilg'an, paxta yog'i ila moylang'an ag'darma etigingini bexijolat ishonib topshirishing mumkin. Chiqqanedingda kamoli ehtirom va ham shirin-shakar lutfila ashylolarining sanga qaytarub berg'ay.

Yana shuni yodda tutg'ilki, tomosho vaqtida ko'rvuchilarg'a ziyon-u zahmat yetkazib, alarning oyog'ini bosib, oldini to'sib, u boshdin bu boshg'a o'tmoq, tomoshogohni boshg'a ko'tarmak ham durust ish ermas. Bor ilmu amalini ishg'a solib, barchani hayratg'a qo'ygan san'atkorni boshg'a ko'tarsang, bosh ustina... Tomoshoning yarmisida xonlardek kerishib kirmoq, to'ralardek to'rlamoq va yoxud yarmisida qovun po'choq ustidin xom suv berilg'an tirraqi buzoqdek murodxonani shitob ila tark aylamoqda nojioz amal hisoblanur.

Ey, farzandi, kinog'a borsang, har-chand hamrohangning oyod-qo'li, bilag'-u kuragi uyushib turgan bo'lsada, zinhor-bazinhor qutlug' dargohda uqalab qo'ymag'il. Ola nazarlardan bo'limg'il, o'zingni tiyং'il. Saning be-abab barmoqlarining nozuk yelkalari, to'iqin-to'iqin sochlari, oydekkurashon, marmar kabi silliq, ipakdayin mayin, ukpar misol toza, qor yanglig' oppoq, marvarid singari bejirim yuzlari uzra sirg'almasun va ham sovuqda yorilg'an lablarining

Tilak:
Murodim shulki, murodingg'a yet-g'aysen!
Seshanba,
Hijriy 1446-yil,
Jumodus-soniy oyining 29-kuni,
Milodiy 2024-yil 31-dekabr shomida sarxush bitdim.

Otaqo'zi Dodaxo'ja o'g'li BOBOQAND

IZHOR

ULKAN YUTUQLAR

YILI BO'L SIN!



O'tkir ROZIQOV,
matematika fanlari doktori,
akademik,
TWAS a'zosi:

Aziz vatandoshlar, hurmatli gazetxonalar! Sizlarni Yangi yil bayrami bilan chin qalbimdan tabriklayman! 2025-yil har bir oila, har bir yurtdoshimiz uchun quvonch va baxtg'a to'la, orzular ijobat bo'ladijan va ulkan yutuqlar yili bo'sin!

Bugungi kunda O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan islohotlar millatimiz istiqbolini yuksak marralarga olib chiqishga qaratilgan. Bu islohotlar har bir soha va har bir fuqaro hayotida yangilik va taraqqiyot ruhi bilan aks etmoqda. Kelajakka qadam tashlayotgan ushbu yilda ham mehnatimiz va birdamligimiz bilan yurtimiz ravnaqini yanada mustahkamlashda hammaga kuch-g'ayrat va sog'lik tilayman.

"Jadid" gazetasining muhitidan o'quvchilari, yangi yilda barcha ezgu niyatlarining ro'yogba chiqsin! Oilalarimiz farovon, Vatanimiz tinch va obod bo'lsin!

TILBILIM

Qishloqda yoz mahali kechki ovqatni olimiz bilan hovida, so'ri ustida tanovul qillardik. Hovlimizning ikki tononidan oqib o'tadigan ariq atrofida turli o'tlar o'sib yotardi. Deyarli har kuni shu o'tlar orasidan biz o'tirgan so'ri tomon tipratikan pildirab kelayotganini ko'rardik. Qo'rqlasdi, xuddi it-mushuklardek biror nima berarmagan, degan ilincha qarab turaverardi. Bizda – Buxoro tononlarda tipratikanni "kirpi" deyishardi. Nega shunday, deb so'rardik. Bilmadim, bizning shevada shunaqa bo'lsa kerak, deb javob berardi kattalar. Kitoblarida, radio va televideonieda esa bu jonzonli tipratikan deb atashardi.

...Universitetning birinchi bosqichida tahsil olib yurgan paytlarimiz. Adabiyot tarixi fanidan



KIRPI VA KIPRIK

"Devonu lug'otit turk'ni o'qish vazifa qilib berildi. Toshkentning Beshyog'och dahasida joylashgan respublika Xalq ta'limi markazining yaxshigina kutubxonasi bor. "Devonu lug'atit turk'ni izlab shu kutubxonaga bordim. Kutubxona ayol yarim soatcha qidirib, ucta katta kitobni olib chiqdi. O'qish tugul, anchadan beri changlardan tozalanmagan lug'atni asta varaqladim. Varaqloyotib, "kirpi" so'zini uchratib goldim. Qarasam, "tipratikan" deb izoh berilgan ekan. Demak, sof turkiy so'zni biz o'z shevamizda ishlatar ekanim, deb quvonib ketdim.

Lug'atda "kirpi" so'ziga "ko'p tikan" degan izoh berilgan. Demak, sanchiladigan tikani bo'lgani

uchun ushbu jonzot tipratikan deb atalgan ekan. Hozir "kiprik" deyidigan so'zimiz ham aslan shu so'z – "kirpi" bilan o'zakdosh.

Hazrat Navoiy bir o'rinda shunday deydi:
Vahki, har kirpiq bir nishtar erur zahrolud,
Garchi bor ul iki nargisda shakarxob to'la.

Vaqt o'tishi natijasida so'zda metateza hodisasi (tovushlarning o'rini almashishi) yuz bergan: "kirpi" – "kiprik". Qozoq qardoshlarimiz hozir ham "kiprik" deyishadi. Demak, "kiprik"larimiz ham "tikan"ga o'xshagini uchun shunday atalgan bo'lishi haqiqatga yaqin.

Husan MAQSUD

TARMOQLARDA NIMA GAP?

BEHUDA BAHS NE KERAK?

Har safar dekabr oyi oxirlayversa, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bo'lgan yurtdoshlarimiz ikki guruhga bo'linib, ko'hna bir bahsga kirisha ketadi: Yangi yil bayramini nishonlash joizmi yoki yo'q?

Tarmoqda o'zidan "fatvo beruvchi" yasab olgan, lekin real hayotda tahorat olishni ham bilmaydigan "internet shayx"larining hukmnamo chiqishlari bayram mushaklaridek potirlab ketadi.

Haqiqiy ilm ahlidan bu borada so'ralganda, ular bu bayramning dinge aloqasi yo'qligini, bu dunyoviy bir urf-odat ekanini, bayram qilish-qilmaslik har kimning ko'ngil ko'chasiga bog'liqligini ta'kidlashadi.

Shaxsan men bu bayramni turli orzu-maqсадлар билан бoshlangan yilning sarhisob davri, kelgusi rejalar, niyatlar ibtidosi, deb tushunaman. Shunga monand boshlanajak yangi kalendar yilni xursandlik bilan kutib olish, qolaversa, ertaklar olamida yashovchi beg'ubor



bolalarimning shodligini chandon oshirish uchun yuni bayramona bezatish, turli shirinliklar ulashib, ularni quvontirishni afzal bilaman.

Mayli, o'sha "internet shayx"lari juda istayotgan bo'lsa, yangi yilni bayram sifatida nishonlamasini. Bayram kunlari tansiq taomlar bilan qarindosh-u qo'shnilarini mehmon qilaylik. Shu o'rinda men ham mast qiluvchi ichimliklardan tushilish tarafodi ekanimni aytilib qo'yay. Asosiyasi, bayram bir-birimizni yo'qlash, oqibat ko'rsatish, silayi rahm ayyomiga aylansin. Yangi yil muborak bo'lsin, aziz hamyurtim!

Bekmurod BO'RIBOYEV,
Facebook

bayram ular talqin qilayotganidek diniy aqidalarga zid, g'ayridinlarininggina bayrami emas. Bugun butun dunyo musulmonlari yangi yil arafasida bir-biriga egzu tilaklarni yo'llab, boshlanajak yil barokatlari qilishini so'rab niyat qilishadi. Ezgu niyat qilishning esa bior dinda taqiqlanganini shaxs men bilmayman. Iso alayhissalomning tug'ilgan kuni degan iddaoga javob, u zoti sharif ham Xudoning payg'ambarlaridan biri, u kishining mavlud ayyomlarini nishonlash ham unchalik munkar bo'lmasa kerak.

Shuning uchun ko'ngilni keng qilib, boshlanajak yilni yaxshi kayfiyatda kutib olaylik. Bolalarga sh'e'lari aytirib, ular bilan birga bola bo'lib o'yab-kulaylik. Eng tansiq taomlar bilan qarindosh-u qo'shnilarini mehmon qilaylik. Shu o'rinda men ham mast qiluvchi ichimliklardan tushilish tarafodi ekanimni aytilib qo'yay. Asosiyasi, bayram bir-birimizni yo'qlash, oqibat ko'rsatish, silayi rahm ayyomiga aylansin. Yangi yil muborak bo'lsin, aziz hamyurtim!

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxonasi: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidg7@mail.ru (71) 234-21-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi:
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqt: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30
Sotuvda narxi erkin.



Jadid
adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haffaf gazeta

Muassislar:



O'ZBEKİSTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



**RESPUBLİKA MA'NAVİYAT
VA MA'RİFƏT MƏRKƏZİ**



**O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
FANLAR AKADEMIYASI**



**MILLİY MASS-MEDİANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RİVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDİ**



**SHAHIDLAR XOTİRASI
JAMOAT FONDİ**

Bosh muharrir:

Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:

Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir: